- rasmlar, hujjatlar nusxasi, xaritalar, chizmalarni namoyish etish.

***Axborot funksiyasi.*** Ekskursiya xizmati o'zining mavzusidan kelib chiqib, ma'lum soha bilimlari(tarix, tibbiyot, biologiya fanlaridagi erishilgan natijalar; arxeologlarning topilmalari; jamiyat va madaniyatdagi yutuqar va shu kabilar.) bo'yicha axborotga egadir. Gazeta, radio, televideniya, ma'ruza kabi axborot vositalaridan ekskursiya xizmati o'zining ko'rgazmaliligi bilan farqlanadi.

Ekskursiya xizmatida axborotning ko‘pgina qismi ob’ektlarni ko‘rsatish bilan tasdiqlanadi. Axborot sifatida gid oxirgi xalqaro voqealarni emas, mavzuni hikoya qilishi kerak. Ekskursiya xizmatini o‘tkazishda avvaldan tasdiqlangan matn asos bo‘ladi. Ekskursiya xizmati mazmunini ertalabki radio yoki gazetadagi xabarlar bilan to‘ldirmaslik (agardaxabarlar favqulodda hodisalar to‘g‘risida bo‘lmasa)lozim bo‘ladi.

***Madaniy hordiqni tashkil etish funksiyasi.***Dam olish bu- insonning asosiy ishidan keyingi qoladigan bo‘sh vaqtidir. Bo‘sh vaqtni inson sutka davomida, hafta, yilning ma’lum bir davrida, o‘z  xohishiga ko‘ra faol ijodiy yoki jamoaviy faoliyatga, o‘zi yoqtirgan ishga, do‘stlari bilan muloqotga sarflaydi.

Ekskursiya xizmatini «o‘quv va o‘z ustida ishlash» mashg‘uloti turiga kiritishi mumkin. Madaniy hordiq shakli sifatida ekskursiya xizmati ma’naviy ehtiyojlarni qondiradi va shakllanishini ta’minlaydi. O‘tgan asrning 20 yillarida ekskursionist olimlar ekskursiya xizmatini dam olish sifatida emas, balki ekskursantlardan ko‘pgina kuch-quvvat talab etuvchi aqliy mehnatga qiyoslashgan. Ekskursiya xizmatidagi bilimlarning tizimliligi, sayr qilish, qiziqishga qarab tanlash imkoniyatining mavjudligi ushbu xizmatni insonlarning ommabop mashg‘ulotiga aylantirdi. Ekskursiya xizmatini ishdan ajralmagan o‘qish shakliga ham qiyoslash mumkin.

***Madaniy – texnik dunyoqarashni kengaytirish funksiyasi.*** Har bir ekskursiya xizmati inson dunyoqarashini kengaytiradi. Uning qatnashchilari tarix, san’at, me’morchilik, adabiyot, iqtisodiyot va boshqa sohalardan bilim oladilar. Ekskursiya xizmati ekskursantlarning yozma manbalardan, maktab dasturlaridan, ma’ruzalardan olgan bilimlariga aniqlik kiritish imkonini beradi.

Ekskursiya xizmati bu-bir necha madaniy-tarbiyaviy ishlar shaklining sintezidir. Unga mavzuli tahlangan va uslubiy tasdiqlangan qismlar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

- badiiy filmlardan parchalar, ilmiy – ommabop yoki xronologik – hujjatli filmlar;

- voqea qatnashchilari yoki guvohlarining hikoyalari;
- ishlab chiqarish mavzusidagi ekskursiya xizmatlarida sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari rahbarlari, injener – texnik xodimlari, ilg'or ishchilari bilan uchrashuv;
- bastakorlar, artistlar, musiqachilar ijodi va hayotiga bag'ishlangan musiqali asarlarni tinglash;
- tarixiy mavzudagi ekskursiyalarda davlat va jamoat vakillari chiqishlarini ko'rish va shu k.

***Qiziqishlarni shakllantirish funksiyasi.*** Ekskursiya xizmatining asosiy vazifasi ekskursantlarga bilimlarni berish va aniq bilimlar sohasidan ularga qiziqish uyg'otishdir. Adabiy mavzudagi ekskursiya xizmatida ishtirok etib, ekskursantlar keyinchalik aniq bir yozuvchi ijodiyotiga qiziqa boshlaydilar, amaliysan'at, adabiyijodiyotbo'yichakitoblaro'qiydilar, muzeylarga, boshqaekskursiyalargaboradilar. Ekskursiyaxizmatiko'pchilikinsonlaruchuno'zustidaishlashningboshlang'ichpog'onasibo'lishimumkin.

Harbirekskursiyaxizmatiqaysiguruhgao'tkazilishigaqarab, birvaqtningo'zidabirnechtafunksiyanibajaradi. Masalan, bolalar va yoshlar uchun bu ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish funksiyasi; kasb tanlayotgan o'smirlar uchun qiziqishlarni shakllantirish funksiyasi; xorijiy turistlar uchun axborot funksiyasini bajaradi.

## 2.2. Ekskursiya xizmatiningxususiyatlari

**Xususiyat** deb, predmet va hodisalarni o'zaro o'xshashligi yoki bir-biridan farq qilishiga aytiladi, ya'ni shunday aniq xususiyatlarki, predmet, hodisa, madaniy-ma'rifiy ishlar shakli ularsiz mavjud bo'lmaydi.

Ekskursiya xizmatining boshqa madaniy – ma'rifiy ishlar shakli kabi tashkiliy va uslubiy jihatdan o'ziga xosligi mavjud. Ushbu xususiyatlar ekskursiya

xizmatini boshqa madaniy – ma’rifiy ishlar bilan o‘xshashligi yoki muayyan farqini ko‘rsatadi.

Ekskursiya xizmatining umumiy *xususiyatlariga* quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- davomiyligi (bir akademik soatdan (45 daqiqa) bir sutkagacha);
- ekskursantlarning mavjudligi (guruh yoki yakka);
- ekskursiya rahbari- gidning mavjudligi;
- ko‘rgazmaliligi, tomoshabin qabul qilishi, ekskursiya ob’ektlarining mavjudligi;
- guruh harakatlanadigan oldindan tuzilgan ekskursiya marshrutining mavjudligi;
- ob’ektlar namoyishining maqsadliligi, aniq mavzuning mavjudligi;
- guruhning faolligi (kuzatuv, o‘rganish, ob’ektlarni tadqiq qilish).

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarning birortasi bo‘lmasa, jarayon ekskursiya hisoblanmaydi. Ekskursiya xizmati xususiyatlarining mazmuni uning mohiyatini to‘g‘ri talqin etish imkonini beradi. Ko‘rsatiladigan ob’ektlarning kengligi, ko‘prejali mavzu, ekskursiya xizmati uslubining puxtaligi, gidning mahorati ekskursiyada shaxsning shakllanishiga yordam beruvchi aniq funksiyani bajarishi imkonini beradi.

Har bir madaniy - ma’rifiy ishlar shakli o‘zining farq qiluvchi xususiyatlariga ega. Ekskursiya xizmatining asosiy xususiyati – yuqori darajadagi ko‘rgazmaliligidir. Ta’kidlash joizki, yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar har bir ekskursiya  xizmati uchun zaruriydir.

## 2.3. Ekskursiya xizmatinitasniflash

**Tasniflash**deb, predmetlar, hodisalar, tushunchalarni sinflar, bo‘limlar, umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib guruhlarga ajratishdir.

Ekskursiya xizmatini tasniflash masalasi har doim sohasi mutaxassislarining diqqat markazida bo‘lib, bu muammoni yechishda o‘tgan asrning 20 yillarining oxirida harakat qilishdi. EkskursiyachiolimV.A.Gerdekskursiyaxizmatishakllarinitasniflashningo‘zvariantid aekskursiyaniguruhlarvaguruhostilargabo‘lishnivaunitayyorlashdagidgayo‘nalisholi shgayordamberuvchixususiyatlariniajratishnitasniflashningasosiymaqsadisifatidata’ kidlabo‘tgan.

Ekskursiya xizmati ham mustaqil faoliyat (dam olish uylarida, klublarda, maktablarda) ham turistik xizmatmajmuasiningbirqismibo‘lishimumkin (turfirmalarda).

Hozirda ekskursiya xizmati quyidagicha tasniflanadi:

- mazmunigako‘ra;
- qatnashuvchilarsonivatarkibigako‘ra;
- o‘tkazishjoyigako‘ra;
- harakatlanishvositasigako‘ra;
- davomiyligigako‘ra;
- o‘tkazishshakligako‘ra.

***Mazmunigako‘ra*** ekskursiyalar ko‘p rejali va mavzuli bo‘ladi. Ko‘p rejali ekskursiyalarda tarixiy va zamonaviy ma’lumotlardan foydalaniladi. Bunday ekskursiyalar turli xil ob’ektlarni ko‘rsatish negizida tuziladi (tarixiy va madaniy yodgorliklar, bino va inshootlar, tabiat ob’ektlari, mashhur voqea joylari, shaharsozlik, sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari va shu k.).

Ko‘prejali ekskursiyada voqealar batafsil yoritiladi va shahar, o‘lka, viloyat, respublika, davlat haqida umumiy tasavvurni beradi. Bunday ekskursiyada xronologik tartibda shaharning ilk paydo bo‘lishi tarixidan boshlab to kelajakdagi rivojlanishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Ko‘p rejali ekskursiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, mavzuli ekskursiyadan farqli ravishda uning mavzusini belgilash murakkabroq. Tayyorlash va o‘tkazish joyidan qat’iy nazar ular tarkibiy jihatdan bir-biriga deyarli

o‘xshashdir. Ularning har birida bir necha mavzuostilar mavjud (shahar tarixi, ishlab chiqarishning qisqacha tarixi, fan, madaniyat, xalq ta’limi haqida). Ekskursiyada aniq bir shahar, viloyat, o‘lka o‘ziga xos tarixiy rivojlanishiga qarab hikoya qilinadi.Masalan, harbiy-tarixiy mavzudagi ekskursiyalarda urushlar, qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tgan Buxoro xonligidagi o‘zaro nizolar kabishaharlar kiritiladi. Adabiy mavzudagi ekskursiyalarda esa yozuvchi, shoirlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq shahar, qishloq, ko‘chalar kiritiladi.

*Mavzuli* ekskursiyalar bitta mavzuning yoritilishiga bag‘ishlanadi. Agar bu tarixiy ekskursiya bo‘lsa, uning negizida yagona mavzuda birlashtirilgan bir yoki bir necha voqealar yotadi. Agar bu me’morchilik mavzusidagi ekskursiya bo‘lsa, unda shahar, ko‘cha va maydonlarida joylashgan qiziqarli san’at asarlari, o‘tgan asrlar me’moriy ansambllari kiritilishi mumkin.

Mavzuli ekskursiyalar tarixiy, ishlab chiqarish, tabiiy (ekologik), san’atshunoslik, adabiy, me’moriy – shaharsozlik ekskursiyalariga bo‘linadi.

O‘z mazmuniga ko‘ra *tarixiy* mavzudagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *tarixiy – o‘lkashunoslik* (masalan, «Samarqandshahriningmingyilliktarixi», «Moviygumbazostidagishahar»vash.k.);
- *arxeologik* (masalan,SurxondaryoviloyatidagiKampirtepaqadimiyshahri; Samarqand viloyatidagi Afrosiyobarxeologikmajmuasidagitarixiyqazilmalarni ko‘rsatish);
- *etnografik*, turli millat va elatlarning urf odatlari haqidagi ekskursiya;
- *tarixiymuzeylardaekskursiya*.

*Ishlabchiqarish* mavzusidagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *tarixiy-ishlabchiqarish;*
- *iqtisodiy- ishlab chiqarish (masalan, bank, birjafaoliyati);*
- *texnik-ishlabchiqarish;*
- *ekskursantlarnikasbgayo‘naltiruvchi.*

*San'atshunoslik*mavzusidagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo'linadi:

- *teatral – tarixiy* (masalan, «Samarqand shahri teatri hayoti», «A.P.Chexov nomli rus drama teatri tarixi» va sh.k.);
- *musiqiy – tarixiy* (masalan, «Hamid Olimjon teatriga bir kunlik sayohat» va sh.k.);
- *xalqamaliysan'ati* (masalan, O'zbekistondagi kulolchilar, zardo'zlar va boshqa usta hunarmandlar faoliyati bilan tanishish);
- *madaniyatarboblarihayotivafaoliyatibilantanishtiruvchijoylar;*
- *kartinalargalereyasi, ko'rgazmazallari, muzeylar, rassomlarvahaykaltaroshlarustaxonalaridavash.k.*

*Adabiy*mavzudagiekskursiya xizmatlari odatda quyidagi guruhostilarga bo'linadi:

- *adabiybiografik.* Bunday ekskursiyalar shoir, yozuvchi, dramaturglar yashab ijod etgan joylarda o'tkaziladi (masalan, «Sadriddin Ayniy muzey uyi», «Andijon - Bobur yurti» va sh.k.).
- *adabiy – tarixiy*, o'zbek adabiyotining rivojlanishining ma'lum davrini ochib beradi (masalan, «XX – asrda Buxoro adabiyoti», «Adabiy Toshkent» va sh.k.).

*Me'moriy – shaharsozlik* mavzusidagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo'linadi:

- *mazkurshaharningme'moriyqurilishiniko'rsatuvchiekskursiya;*
- *ma'lumtarixiydavrningme'moriyyodgorliklariniko'rsatuvchiekskursiya;*
- *bittame'morijodiyotihaqidama'lumotberuvchiekskursiya;*
- *zamonaviyme'moriynamunalarniko'rsatuvchiekskursiya.*

Shuni ta'kidlash joizki, u yoki bu mavzuli ekskursiyaxizmati bir – biridan kamdan-kam alohida mavjud bo'ladi. Masalan, tarixiy ma'lumotni me'moriy-shaharsozlik mavzusidagi ekskursiyaxizmatida ham foydalanish mumkin. Tabiatshunoslik ekskursiyalarining elementlarini qariyib barcha ekskursiyalarda

uchratish mumkin bo‘lib, ekskursiyani o‘tkazish sharoiti, shahar yoki hududning resurslariga bog‘liqdir.

*Qatnashuvchilartarkibigako‘raekskursiyalar*quyidagilarga bo‘linadi:

- *kattalarvabolalar uchun;*
- *mahalliyaholivaturistlar uchun;*
- *shaharliklarvaqishloqaholisi uchun;*
- *guruhlivaindividualbo‘lishi mumkin.*

Har bir guruh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ekskursiya ma’lumotlari, uslubi va texnikasi, davomiyligiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

*O‘tkazishjoyigako‘ra*: shaharda, shahar tashqarisida, ishlab chiqarish korxonalarida, muzeyda, majmuali bo‘lishi mumkin.

*Harakatlanishvositasigako‘ra*:piyodayokiturliharakatlanishvositasidabo‘lishi mumkin. Piyodaekskursiya xizmatlariningafzalliktomonishundaki, unda harakatlanishning zaruriytezligini ta’minlab, ob’ektlarni ko‘rsatish va hikoya qilishda qulay sharoit yaratish mumkin.

Transportli ekskursiyaxizmati (asosan avtobusli) ikki qismdan iborat bo‘ladi: to‘xtash joyida ekskursiya ob’ektlarining tahlili(asosiy ob’ektlar) va ob’ektlar oralig‘ida tarixiy joylar va yodgorliklar tavsifi bilan bog‘liq hikoyalardan iborat. Ba’zida ekskursiya xizmati amaliyotida suv va havo transportidan ham foydalanishadi. Ekskursiya xizmati davomiyligi bir akademik soatdan(45 daqiqa) bir sutkagacha bo‘ladi. Qisqa muddatli turlarni(1 kundan 3-4 kungacha) dam olish kunlari marshruti ham deyishadi va uning tarkibida bir necha ekskursiya xizmatlari nazarda tutilishi mumkin.

*O‘tkazilishshakligako‘ra* ekskursiya xizmatlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- *ommaviy ekskursiya*. Bunday ekskursiya xizmatlari qatnashuvchilari odatda 10-15 ta avtobuslarda (har bir avtobusda alohida gid) bitta marshrut bo‘ylab bir vaqtda harakatlanadilar. Bunday ekskursiyalar ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar, folklor bayramlarni o‘z ichiga olishi mumkin;

- *ekskursiya-sayr.* Bunday ekskursiya xizmati odatda o‘rmonda, daryovadengizbo‘ylabo‘tkaziladi, o‘rganish va dam olish elementlarini o‘zida mujassamlaydi;

- *ekskursiya-konsert.* Bunday ekskursiyaxizmati musiqali mavzuga bag‘ishlanib, avtobussalonlaridamusiqali asarlar ham eshitiladi;

- *ekskursiya-spektakl.* Bunday ekskursiya xizmati adabiy-badiiy ekskursiyaxizmatini o‘tkazishning shakli bo‘lib, badiiy adabiyotning aniq bir asari bo‘yicha tayyorlanadi va sh.k.

To‘g‘ri tasniflangan ekskursiya xizmati gidning ekskursantlar bilan ishlashiniyengillashtiradi, uslubiy to‘garaklar faoliyati uchun asos hisoblanadi.

***Tayanch so‘z va iboralar:*** «funksiya» tushunchasi, ekskursiya xizmati funksiyalari: ilmiy-targ‘ibotfunksiyasi, axborotfunksiyasi, madaniyhordiqnitashkiletishfunksiyasi, madaniy – texnikdunyoqarashnikengaytirishfunksiyasi, qiziqishlarnishakllantirishfunksiyasi, «xususiyat» tushunchasi,ekskursiya xizmatining xususiyatlari, «tasniflash» tushunchasi,ekskursiya xizmatini tasniflash.

### *Mustaqil ishlash uchun savollar:*

1. Ekskursiyaxizmatiningfunksiyalariniizohlang.
2. Ekskursiyaxizmatiningxususiyatlarinitushuntiring.
3. Adabiymavzudagiekskursiya xizmatigamisollarkeltiring.
4. Me’moriy-shaharsozlikmavzusidagiekskursiya xizmatigamisollarkeltiring.

### *Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun topshiriqlar:*

Topshiriqlarnikichikguruhlargabo‘linganholdabajaring.Yangimavzubo‘yicha ekskursiyaxizmatinituzishgatayyorgarlikko‘ring. Ushbuekskursiyanikimuchun, qaysimavsumda, qandaytransport vositasida tashkil etish mumkinligini rejalashtiring.

*Test savollari:*

**1. Ekskursiyaxizmatiningilmiy-targ'ibotfunksiyasibu-**

a)ekskursantlargasiyosiy, falsafiy, ilmiy, badiiyqarashlar, g'oyalar, nazariyalarningshakllanishigayordamberadi.

b)mavzudankelibchiqqanholdama'lumsohabilimlaribo'yichama'lumotlarberadi.

d)madaniyhordiqshaklisifatidaekskursiyaxizmatima'naviyehtiyojlarniqondiradivashakllanishinita'minlaydi.

e)ekskursantlaraniqbirmavzudagiekskursiyaxizmatigaqatnashib,keyinchalikshusohagaqiziqibqo'shimchama'lumotlaro'qishimumkin.

**2. Ekskursiyaxizmatiningaxborotfunksiyasibu-**

a)mavzudankelibchiqqanholdama'lumsohabilimlaribo'yichama'lumotlarberadi.

b)madaniyhordiqshaklisifatidaekskursiyaxizmatima'naviyehtiyojlarniqondiradivashakllanishinita'minlaydi.

d)ekskursantlaraniqbirmavzudagiekskursiyagaqatnashib,keyinchalikshusohagaqiziqibqo'shimchama'lumotlaro'qishimumkin.

e)ekskursantlargasiyosiy, falsafiy, ilmiy, badiiyqarashlar, g'oyalar, nazariyalarningshakllanishigayordamberadi.

**3. Ekskursiyaxizmatiningmadaniyhordiqnitashkiletishfunksiyasibu-**

a)madaniyhordiqshaklisifatidaekskursiyaxizmatima'naviyehtiyojlarniqondiradivashakllanishinita'minlaydi.

b) mavzudankelibchiqqanholdama'lumsohabilimlaribo'yichama'lumotlarberadi.

d) ekskursantlargasiyosiy, falsafiy, ilmiy, badiiyqarashlar, g'oyalar, nazariyalarningshakllanishigayordamberadi.

e) ekskursantlaraniqbirmavzudagiekskursiyagaqatnashib,keyinchalikshusohagaqiziqib qo‘shimchama’lumotlaro‘qishimumkin.

**4.Ekskursiyaxizmatiningmadaniy – texnikdunyoqarashnikengaytirishfunksiyasibu-**

a)ekskursantlarturlisohalardanbilimberadi, yozmamanbalardan, maktabdasturlaridan, ma’ruzalardanolganbilimlarigaaniqlikkiritadi.

b) ekskursantlaraniqbirmavzudagiekskursiyaxizmatigaqatnashib,keyinchalikshusohagaqiziqibqo‘shimchama’lumotlaro‘qishimumkin.

d) mavzudankelibchiqqanholdama’lumsohabilimlaribo‘yichama’lumotlarberadi.

e) madaniyhordiqshaklisifatidaekskursiyaxizmatima’naviyehtiyojlarniqondiradivashakllanishinita’minlaydi.

**5. Ekskursiyaxizmatiningqiziqishlarnishakllantirishfunksiyasibu-**

a) ekskursantlaraniqbirmavzudagiekskursiyaxizmatigaqatnashib,keyinchalikshusohagaqiziqibqo‘shimchama’lumotlaro‘qishimumkin.

b) ekskursantlargasiyosiy, falsafiy, ilmiy, badiiyqarashlar, g‘oyalar, nazariyalarningshakllanishigayordamberadi.

d) madaniyhordiqshaklisifatidaekskursiyaxizmatima’naviyehtiyojlarniqondiradivashakllanishinita’minlaydi.

e) mavzudankelibchiqqanholdama’lumsohabilimlaribo‘yichama’lumotlarberadi.

## *3 - mavzu.* EKSKURSIYA RAHBARI - GIDGA QO'YILADIGAN TALABLAR

3.1. Gid kasbining o'ziga xos xususiyatlari

3.2. Gidning shaxsiy fazilatlari, mahoratiga qo'yiladigan talablar

3.3. Gidning nutq madaniyati

3.4. Gid faoliyatini tashkil etishning bosqichlari

### 3.1. Gid kasbining o'ziga xos xususiyatlari

Har bir kasb mehnat faoliyati bo'lib, insondan aniq bilim va mehnat ko'nikmalarini talab qiladi. Bu bilim va ko'nikmalar umumiy va maxsus ta'lim hamda ishchining kunlik amaliy faoliyati jarayonidan olinadi.

Gidning ishi yaqin o'tmishgacha kasb sifatida qaralmagan, u havaskor guruh uchun qiziqarli mashg'ulot bo'lgan, xolos. Gid ishini turli soha mutaxassislari o'zlarining asosiy faoliyatlaridan ajralmagan holda bajarishgan (pedagoglar, muzey ilmiy xodimlari, institut ilmiy xodimlari va h.k.). Faqatgina bir necha ekskursiya muassasasi va alohida muzeylar shtatida gidlar mavjud bo'lgan, xolos. Ammo o'sha paytlarda bu faoliyat kasbiy xususiyatlarga ega bo'la boshlagan.

Ekskursiya xizmati funksiyasining o'zgarishi, uning dam olish shaklidan mehnat jamoalarida madaniy-tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakliga aylanishi, aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqqa aylanishi, yangi mutaxassislik, ya'ni gid rolining oshishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasiga turistik guruh rahbari (turlider) va gid (ekskursiya yetakchisi) tushunchalari kiritilgan. Unga ko'ra «*turistik guruh rahbari* - turistik faoliyat sub'ektlarining vakili bo'lgan va uning nomidan ish ko'rib, turistlarga xizmat ko'rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta'minlovchi jismoniy shaxs», «*Gid (ekskursiya yetakchisi)* - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko'rsatish

shartnomasi doirasida ekskursiya-axborot, tashkiliy yo'sindagi xizmatlar va malakali yordam ko'rsatuvchi jismoniy shaxs»[2]-degan ta'riflar kiritilgan.

Gid kasbining shakllanishi murakkab va ko'pqirralidir. Unda quyidagi 4 ta bosqichni ajratish mumkin:

*3.1-jadval*

**Gid kasbining shakllanishi bosqichlari**

| **Bosqich-lar** | **Jarayon nomi** | **Harakat joyi** |
|---|---|---|
| 1 | Insonlar bilan madaniy jamoaviy ishlarni olib borish ishtiyoqining shakllanishi | Umumla'lim maktabi, klubli muassasalarda |
| 2 | Mutaxassislik bo'yicha bilimlar tizimiga ega bo'lish | OTM, kurslar, mustaqil o'rganish |
| 3 | Kasbiy mahorat asoslarini o'rganib olish | Gidlarni tayyorlovchi kurslar, turizm mutaxassisligi bo'yicha OTMda |
| 4 | Mutaxassislik bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmalarni takomillashtirish | Malaka oshirish kurslari, gidlarning uslubiy to'garaklarida |

***Kasbiy talablar***. Gid kasbini tanlagan insonlarga ushbu kasb bir necha talablarni qo'yadi, ya'ni madaniy-tarbiyaviy ishlarga ishtirok etish ishtiyoqi, tarbiya jarayonida ekskursiya xizmatining mohiyati, undagi o'z rolini tushunishi, burchini his etishi, yaxshi diksiyaga ega bo'lishi, bir yoki bir necha ekskursiya mavzulari bo'yicha aniq bilimlarga ega bo'lishi, madaniyatsizlik va eskicha qarashlarga befarq bo'lmasligi, o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirishi, yangilikka intilishi, ishda tashabbus ko'rsatishi va ijodiy yondashishi, ekskursantlarni qiziqtirishi va talablarini chuqur o'rganishi, turli guruhdagi insonlarga xizmat ko'rsatishda turlicha yondashuv; tarbiyaviylik, yuqori madaniyat va xulq-atvor, ekskursantlar

[2]Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонуни//«Халқ сўзи» газетаси, 1999.

bilan to‘g‘ri munosabat yuritishi, ekskursiya xizmatini o‘tkazish uslubiga ega bo‘lishi, xullas, kasb sirlarini yaxshi bilishi kerak.

Har bir gid nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarga, balki pedagogika va psixologiya asoslarini ham bilishi zarur bo‘lmoqda. Gid o‘z ishini to‘g‘ri tahlil qilishi, o‘tkazgan ekskursiya xizmatiga ob’ektiv baho berishi, prinsipial va o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishi muhimdir.

Gid kasbi aniq amaliy malakaga ega bo‘lishni talab qiladi. Bu malaka unga o‘z bilimlarini auditoriya uchun to‘g‘ri tanlab olish, mujassamlashtirish va samarali uzatish imokoniyatini beradi. Gid kasbini tanlaganlar quyidagilarniqila olishi kerak: zaruriy, aniqma’lumotlarni tanlashi, o‘qibo‘rganishi, aniq mavzudagi ekskursiyaga individual matn tayyorlashi, uslubiy qo‘llanmani tuzishi, ularni amaliyotda qo‘llashi, «gid portfeli»dagi ko‘rgazmali vositalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtidaqo‘llashi, boshqa gidlar bilan tajriba almashishi, mintaqaning ekskursiya imkoniyatlarini targ‘ib qilishda ishtirok etishi va sh.k.

Gidning amaliy bilim va ko‘nikmasi unga uslubiy ishlarda qatnashishda, to‘garaklarni, turistik guruh rahbari hamda turagentlar uchun malaka oshirish kurslarini olib borishda, yosh gidlarga yordam berishda kerak bo‘ladi. Amaliy bilim va malakaning mavjudligi gid ustamonligining mustahkam negizidir.

***Kasb va mutaxassislik.***Gidlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri mutaxassislikdir. Eng avvalo «kasb» va «mutaxassislik» kabi ikki tushunchaningmazmuni va o‘zaro aloqasini aniqlab olamiz.

*Kasb* – aniq bilim va ko‘nikmalar jamlanmasini talab qiluvchi mehnat faoliyati shaklidir.

*Mutaxassislik* – bir kasb zahirasidagi faoliyat turi. Masalan: vrach bu – kasb bo‘lsa, terapevt, jarroh, stomatolog bu - mutaxassislik va sh.k. Kasb asosiy faoliyat turi bo‘lsa, «mutaxassislik» tushunchasi ma’lum kasb doirasida bilimva mahoratga erishganlik darajasini ko‘rsatadi, ya’ni, mutaxassis bu biror mutaxassislikni professional egallagan ishchidir.

Gidlarni tayyorlash jarayonining vazifasi - mutaxassislarni malakali gid qilish, ya’ni gid kasbining zaruriy bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi uchun har bir mutaxassisga yordam berishdir. Bunda ishni shunday tashkil etish kerakki, ekskursiya muassasasiga kelgan kishi o‘z mutaxassisligini nafaqat saqlab qolsin, shu bilan birga uni takomillashtirib, ekskursiya xizmatini yaxshi tashkil etishi uchun o‘z vazifasini mustahkamlasin.

Tarix o‘qituvchisi gid bo‘lganidan keyin tarixiy mavzuda ekskursiyalar o‘tkazishi maqsadga muvofiqdir. Undan tabiatshunoslik mavzusida ekskursiya mavzusini tayyorlashni talab qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu mavzudagi ekskursiyalarni mutaxassis – biolog, geograf tayyorlashi maqsadlidir.

Ekskursiya muassasalari va davlat muzeylari qoshida gidlarning  malakasini oshirish kurslari tashkil etilgan (tarixiy, adabiyot, tabiatshunoslik, va sh.k.). Masalan, Samarqand viloyatining Davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi gid-ekskursovodlarni tayyorlash o‘quv markazida 216 soatlik «Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish» qayta tayyorlash kursi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu kursni tamomlagan tinglovchilarga «O‘zbekturizm» MK tomonidan «Samarqand shahri gidi» ixtisosligi bo‘yicha qayta tayyorlash haqida guvohnoma beriladi. Hozirda ushbu kursda 2013 yilda jami 116 nafar, 2014 yilda jami 107 nafar tinglovchi o‘qidi.

## 3.2. Gidning shaxsiy fazilatlari, mahoratiga qo‘yiladigan talablar

Shaxsga qo‘yilgan axloqiy talablar bu umumiy prinsiplarga va axloqiy me’yorlarga rioya qilishi, mukammalikka intilishidir. Shaxsning har tomonlama mukammal va barkamol bo‘lib shakllanishi uning butun bir umri davomida ro‘y beradi (umumta’lim maktabida, kollej, OTM da, jamoada, kundalik hayotda, gidlarni tayyorlovchi kurslarda, ekskursantlar bilan o‘zaro munosabatda).

Gid shaxsiyatining shakllanishi gid kasbining shakllanishi jarayonida yuzaga keladi. Gid shaxsiyatiga qo‘yilgan talab uning umumiy tamoyillar va xulq- atvor me’yorlariga rioya qilishi, aniq g‘oyalarga amal qilishidir.

Shaxsning asosiy *fazilatlariga* quyidagilarni kiritish mumkin*:*

- farosatlik – aql idrok bilan ish tutishi;
- mas’ullik – o‘z harakatlari natijasini tushunishi;
- shaxsiy obro‘si – o‘z xuquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq harakatlari;
- individuallik – shaxsiyatining o‘ziga xosligi, takrorlanmasligi.

Gid o‘z kasbining xususiyatidan kelib chiqqan holda faol hayotiy qarashlarini namoyon etishi va kunlik faoliyatida foydalanishi kerak.

*Faol hayotiy qarashlar–* shaxsning jamiyat hayotiga qatnashishidir. Shaxsning hayotiy qarashlari uning jamiyat, mehnat, davlat va xususiy mulkka, boshqa shaxslarga va o‘ziga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning hayotiy qarashlari faolligini baholashda barcha jamoaviy, mehnat, g‘oyaviy – ommaviy faollik turlari inobatga olinadi.

Gidni ijobiy tavsiflovchi bilimi, malakasi, ko‘nikmasi eng avvalo, unga topshirilgan ishni bajara olishi qobiliyatiga asoslangandir. Gidlarni o‘qitish jarayonida uslubchilar ularning yangi ekskursiya mavzusini tayyorlashi, referat yozishi, kurslarda ma’ruza o‘qishi, marshrutlarda ekskursiya o‘tkazishi, uslubiy yo‘riqlarni tanlashi kabi ishlarni qila olishi uchun zaruriy qobiliyatlari mavjudligini inobatga olishadi.

Gidning asosiy faoliyati ekskursiya xizmatini tayyorlash va o‘tkazishdir. Ekskursiya xizmati tayyorlash 3 qismga bo‘linadi:

1. Individual matnni tayyorlash;
2. Metodik ishlanma talablarini eslab olish;
3. Marshrutni yodda tutish.

Ekskursiya xizmatiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida gid o‘z-o‘zini tekshirishi uchun taxminan quyidagi savollarga javob izlaydi: Ob’ekt oldida mavzuning rejalarini yoritishda hikoyani nimadan boshlayman? Qanday qilib

ko'rish orqali rekonstruksiyalash usulini yaxshiroq qo'llashim mumkin? Gid mavzuni qay darajada o'zlashtirib olganidan qat'iy nazar, u har safar tayyorgarlik ko'radi. Tayyorgarlik bosqichining muvaffaqiyati gid shaxsiyatining individual xususiyatlariga, ya'ni zaruriy ishlarni bajarishdagi tezkorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liq. «Tayyorgarlik» tushunchasiga ruhiy tayyorgarlik ham kiradi. Bunda o'z bilimiga ishonish, ya'ni ekskursiya xizmatini yuqori saviyada o'tkazishiga, ekskursantlar ko'rganidan va eshitganidan mamnun, xursand bo'lishiga ishonchidir.

Har bir pedagogda xos bo'lgani kabi gidga ham 4 turdagi qobiliyat xosdir:

- konstruktivlik
- tashkilotchilik
- kommunikativlik
- tahlil qilish.

*Konstruktivlik*qobiliyati ekskursiya xizmati ma'lumotlarini tanlash va to'g'ri rasmiylashtirish, uni tushunarli va ishonchli yetkazish, zaruriy hollarda ekskursiya rejasini, uslubiy yo'riqlardan foydalanish tartibini qayta ko'ra olish kabilarda o'z ifodasini topadi va gid fikrlash qobiliyatining asosi hisoblanadi.

*Tashkilotchilik* qobiliyati ekskursiya guruhini boshqara olish, ularning e'tiborini kerakli ob'ektga yo'naltirish, turistlar va ekskursantlar uchun tasdiqlangan dasturlardagi xizmatlarning bajarilishida o'z ifodasini topadi.

*Kommunikativlik* qobiliyati ekskursiya guruhi bilan ishlaganda o'zaro iliq munosabat o'rnatish, ekskursiya xizmati davomida ushbu muhitni saqlash, marshrut jarayonida avtobus haydovchisi, ko'rgazma, muzey ishchilari, uslubiy to'garak rahbarlari, boshqa gidlar, turistik guruh rahbarlari bilan o'zaro to'g'ri munosabat o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi.

*Tahlil qilish* qobiliyati o'z ishini tanqidiy tahlili, o'tkazgan ekskursiya xizmati sifatini, metodik usullarni qo'llashning samardorligini ob'ektiv baholashida namoyon bo'ladi.

Ta'kidlab o'tilgan qobiliyatlar hamma gidlarga ham uchramaydi. Gid qobiliyatini rivojlantirishda kurslardagi o'qishlar, uslubiy to'garaklardagi ishlar, ob'ektlar oldidagi mustaqil mashg'ulotlar, ekskursiyani o'tkazish uslubi va texnikasini chuqur o'rganish muhim rol o'ynaydi.

***Ekskursiya xizmatini tashkil qilishda gid temperamentining roli.*** Tashkil etiladigan ekskursiya mavzusining xarakteri, uning o'ziga xosligi gidning temperamentiga bog'liq bo'ladi. Temperament esa uch xulq atvorda namoyon bo'ladi va hissiyotlarning kuchli yoki kuchsizligi, barqarorligi yoki o'zgaruvchanligi, kechinmalarning davomiyligi bilan tavsiflanadi. Inson temperamentiga (sangvinik, xolerik, flegmatik, milanxolik) bog'liq ravishda uning xulq-atvori aniq hissiyotlar guruhi bilan tavsiflanadi: jo'shqin, jahldor, bosiq, har xil asabbuzarliklarga reaksiyasi.

Temperamentning namoyon bo'lishi inson umumiy madaniyatining natijasidir. Uningharakatlari irodasiga bo'ysunishi va o'z hissiyotlarini boshqara olishiga bog'liq bo'lishi kerak. Ekskursiya xizmati jarayonida ekskursantlar bilan o'zaro munosabatda bu omil muhim hisoblanadi. Tashqi va ichki asabbuzarliklar ta'sirida yuzaga kelayotgan gidning hissiyotlari, kayfiyati (haddan tashqari ko'tarinki yoki tushkun), ekskursiya jarayoniga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. O'zini qo'lga olish, guruhda kerakli muhitni ta'minlash gid mahoratining asosidir.

Gidning his-tuyg'ulari ob'ektiv xarakterga ega bo'lishi kerak. Ekskursiya jarayonida mavzuni yoritishda, gid ekskursantlarda hamdardlik hissini, voqealarga ishtiroki hissini uyg'ota olishi maqsadlidir. Ekskursantlar kayfiyatidahikoyaga nisbatan umumiy hamdardlikka erishilsa, ekskursiya ma'lumotlari yuqori darajada qabul qilingan bo'ladi. Ekskursiya jarayonida shunday holatlar ham uchraydiki, tarkibiy jihatdan har xil bo'lgan guruhda bitta ma'lumotga nisbatan turlicha munosabat bo'lishi mumkin. Buning sababi odamlarning individual o'ziga xosligi, temperament tiplari, ularning kayfiyati, mavzuga qiziqishi, ekskursiyada ishtirokidagi motiviga bog'liqdir.

Ekskursiya xizmati mavzusidan kelib chiqib, gid ekskursantlarning umumta’limiy tayyorgarligi va ularning estetik rivojini hisobga olishi zarur. Ma’lumotlarga haddan ziyod izoh berish, uni soddalashtirish ekskursantlarda turli hissiyotlar uyg‘onishiga halaqit beradi, fikrlash qobiliyatini yengillashtirmoqchi bo‘lib, gid ular bilan aloqani yo‘qotishi va shu tariqa mavzuni buzishi mumkin. Soddalashtirilgan ma’lumot, haddan ziyod misollar, yangilikning yo‘qligi, ekskursantlarga hech qanday hissiyot o‘yg‘otmaydi.

***Gidning optimistligi(nekbinligi).***Insonning zaruriy fazilatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: optimistlik, hayotdan zavqlanish, tetiklik, atrofdagi yaxshi va ijobiy narsalarni ko‘ra olish va sh.k. Gidning optimistligi uning mehmondo‘stligi, xushmuomilaligi, tabassumi, atrofdagi insonlarga e’tibori, guruhda yaxshi muhit yaratishi, kayfiyatini ko‘tara olishida namoyon bo‘ladi.

Ekskursiya xizmatida hikoyaning ohangi, berilayotgan bilimlarning ishonarliligi, ekskursiyani yaxshi o‘tishiga ishonishi, o‘z o‘rnida hazillashishi, bularning barchasi gidning optimistligidan dalolat beradi.

***Gidning individualligi.***Har bir inson uni boshqalardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega (nutqi, ma’lumotni yetkazishi, imo-ishoralari va sh.k.).

Marshrutda gidning hikoyasini eshitib, shuni anglash mumkinki, u ba’zi detallarni o‘zicha bayon qiladi, fikrlar qo‘shadi, imo-ishoralar, tabassumidan foydalanadi. Bir gid yozma manbalarga murojaat qilsa, boshqasi mavzuni boyituvchi she’rlar o‘qiydi, uchinchisi hujjat ma’lumotlaridan foydalansa, boshqasi tanaffusni to‘g‘ri belgilaydi. Ko‘p yillik ish tajribasiga ega gidlarda ekskursiyani olib borishning individual yondashuvi shakllangan bo‘ladi va yillar davomida qo‘llab kelayotgan usullarni o‘z o‘rnida boshqa usullar bilan uyg‘unlashtirib ishlatishadi.

***Gidning obro‘yi*** (avtoriteti) bevosita shaxsiyat muammosiga tegishlidir. Gidning obro‘yi uning bilimi, malakasi, ko‘nikmasi, mafkurasi, tajribasiga asoslanadi. Bu obro‘y bir necha omillar majmuasi, yig‘indisidan kelib chiqadi:

a) *holat obro‘yi,* bu gidning ekskursiya rahbari, ekskursantlarni boshqarishi faoliyatini nazorat qilishi bilan belgilanadi;

b) *bilimliligi obro‘yi, ekskursiya* mavzusini ekskursantlardan ko‘ra chuqurroq bilishi gid obro‘yini mustahkamlaydi;

d) *malakaviylik obro‘yi, ekskursiyalarni* o‘tkazish tajribasining mavjudligi malakaviylik obro‘yini shakllantiradi (ekskursiyani o‘tkazishning uslubi va texnikasini qo‘llash ko‘nikmasi);

e) gid obro‘yining muhim negizi bu- uning *nutq madaniyati va noverbal vositalarni* qo‘llay olishidir;

g) *ekskursantlar bilan o‘zaro munosabati,* guruhda zaruriy muhitni yaratish. Bunda uning o‘zini tutishi madaniyati va nutqi gid obro‘yining negizi hisoblanadi.

Gid kasbiy mahoratining asosini uning malaka va ko‘nikmasi tashkil etadi.

**Malaka-** bu insonning egallagan bilim va ko‘nikmalari yordamida ma’lum harakatlarni bajarishdir. Malaka – ongli, hatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Malaka – faoliyat jarayonida uning biror-bir elementini (ongning eng kam nazorati ostida) bajarish qobiliyatidir. Ko‘nikma, malakalar maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi.

Kasbiy mahoratni shakllantirish uchun chuqur bilim va uslubiy vositalardan foydalanish malakasi zarurdir. Gid mahoratini egallashning quyidagi yo‘llari mavjud: boshqa gidlar tajribasini qo‘llash, o‘quv mashqlarini bajarish, ekskursiyalarga qatnashib ko‘rish va sh.k. Gidning muhim mahoratlaridan biri auditoriya uchun bilimlarni qulay moslashtirishdir.

**Ko‘nikma-** bu insonning aniq harakatlarni bajara olishidir. Bu mahoratga bitta mashqni bir necha bor takrorlash orqali erishiladi. Natijada ishchida ishni sifatli bajarish odati yuzaga keladi. Gid uchun ushbu harakatlar ekskursiyani tayyorlash va o‘tkazish jarayonidir. Ekskursiyani jarayonidagi «operatsiyalarning» tartibi  va ketma-ketligi, harakatlar obrazi uning odatlariga aylanadi. Ega bo‘lgan odatlardan ko‘nikmalar shakllanib, takomillashadi. Shunday qilib, ko‘nikma gidning bir xil sxema (yo‘naltirilganlik, ketma-ketlik, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va

sh.k.) asosida amaliyotda to‘plagan harakatlaridir. Ko‘nikma mahoratning yuqori darajasidir. Ko‘nikma avtomatik qilinadigan harakatlardir. Ko‘nikmaga ega bo‘lish bu nafaqat ishni tez va aniq, balki ishonchli bajarishga erishish hisoblanadi. Gid ko‘nikmalarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

- yangi ekskursiya mavzusini tayyorlash ko‘nikmasi;
- ekskursiyada ob’ektlarni ko‘rsatish ko‘nikmasi;
- ekskursiya ob’ektlarini hikoya qilish ko‘nikmasi;
- ekskursiyani o‘tkazish texnikasi ko‘nikmasi;
- «gid portfeli»dagi ko‘rgazmali vositalarni namoyish etish ko‘nikmasi;
- ekskursantlar bilan ishlash ko‘nikmasi;
- nutq madaniyati ko‘nikmasi;
- kitob bilan, muzeyda, ko‘rgazmada, arxivda ishlash ko‘nikmasi;
- ekskursiyani o‘tkazishda tayyorgarlik ko‘nikmasi;
- ekskursiyani reklama qilish ko‘nikmasi;
- ekskursiyadan keyingi ishlar ko‘nikmasi.

Gid ekskursiya guruhi qatnashuvisiz o‘ziga xos repetitsiyalarda ekskursiyaning texnikasini(ob’ektlarni ko‘rsatishning qulay nuqtalarini tanlash, hikoya qilishning usullarini qo‘llash, «gid portfeli»dagi ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, guruhni to‘g‘ri joylashtirish) takrorlab olishi maqsadga muvofiqdir. Bundayin mashg‘ulotlarni uslubchi yoki malakali gidlar nazorat qilishi mumkin. Bu turdagi mashg‘ulotlar jarayonida gidning harakatlari o‘rganiladi, aniqlanib mustahkamlanadi. Aniq metodikadan foydalangan holda mashg‘ulotlarni o‘tkazish va doimiy takrorlash gidda ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga olib keladi. Bunday ishlarni tashkillashtirishning turli shakllari mavjud, masalan, o‘quv ekskursiyalar, ob’ekt oldida mashg‘ulotlar, ish yuzasidan o‘yinlar o‘tkazish va sh.k. Mashg‘ulot qatnashchilariga quyidagi savollarga javoblar olinadi:

1. Ob’ektni ko‘rsatishda gid qaysi ko‘nikmalarni qo‘llaydi?
2. Ko‘nikmalardan foydalanish samaradorligi qanday?

3. Qaysi ko‘nikmalarni o‘rganish qiyinroq?

4. Gid qo‘llayotgan usullarni ekskursantlar sezishi mumkinmi?

Ko‘nikmalarning takomillashib borishi gidga ekskursiyadagi turli tayyorgarlik darajasiga ega odamlar uchun uni o‘tkazishning variantlaridan foydalanish imkonini beradi.

Gidning kuzatuvchanlik ko‘nikmasini rivojlantirish ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Buning uchun quyidagi mazmunda mashqni taklif etish mumkin: gidlarga 20-30 soniya davomida bir necha predmetlar ko‘rsatiladi. Keyin savol beriladi: Nimalarni ko‘rdingiz? Predmetlarning ko‘rinishi? Qay biri qiziqarliroq? Mashq bir necha bor takrorlanadi. Keyinchalik vaqt kamroq ajratilib, predmetlar soni ko‘payadi. Mashg‘ulot maqsadi- gidlarni kuzatilayotgan ob’ektni tez qabul qilishi, his etishiga erishishidir.

Boshqa bir guruh mashg‘ulotlar gid diqqatini bir-biriga o‘xshash predmetlarni taqqoslashga yo‘naltiriladi. Mashg‘ulot boshida kuzatilayotgan predmetlarning farq qiluvchi xususiyatlari, detallarini sanab o‘tish vazifasi beriladi. Mashg‘ulot qatnashchilari, kuzatilayotgan ob’ektni taqqoslab, ularning bir-biridan farq qiluvchi jihatlarini topishadi. Shu tariqa kuzatuvchanlik ko‘nikmasi shakllanadi. Ekskursiyalar mazmuni, ob’ektlarning tavsifi va o‘ziga xosligidan kelib chiqib, gidlar uchun boshqa mashqlar ham tashkil etiladi. Maqsad ekskursiyalarni o‘tkazishda gidlarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Gidlarning kasbiy mahoratini oshirish, ko‘nikmasini shakllantirish va mustahkamlashda uyga berilgan vazifalarni bajarishi katta o‘rin egallaydi. Ushbu mashg‘ulotning o‘ziga xos jihati - aniqlikdir. Masalan: gidga shahar ekskursiyalarida ob’ektni ko‘rsatishda rekonstruksiyalash usulidan foydalanish texnikasini, imo-ishoralar usulidan foydalanishni repetitsiya qilish vazifasi beriladi.

Ekskursiya xizmatining samaradorligi nafaqat gidning bilim va malakasiga balki, ekskursantning ob’ektni kuzata olishi ko‘nikmasiga, hikoyaga e’tibor qilishiga, aniq faktli ma’lumotlarni qabul qilib, zaruriy xulosalar qilishiga

bog‘liqdir. Shuning uchun, ekskursiya xizmatining asosiy vazifasi ob’ektlarni ko‘rish va his qilishni ekskursantlarga o‘rgatishdir, ya’ni ularda ob’ektlarni kuzatish va o‘rganish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

### 3.3. Gidning nutq madaniyati

Ekskursiya xizmati mavzusini ekskursantlar eshitish va ko‘rish orqali qabul qilishadi, ya’ni ekskursiya jarayonida bevosita gidning ovozini eshitishadi. Ekskursantlar qarshisida gid quyidagi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- *axborot beruvchi*, ya’ni gid biror-bir voqea, hodisalar haqida o‘z munosabatini bildirmasdan, mohiyatini tushuntirmasdan, faqatgina hikoya qiladi, ya’ni ekskursantlarni bilimlardan xabardor qiladi;
- *suhbatdosh*, ya’ni ob’ektlarni ko‘rsatish jarayonida gid suhbatdosh rolini bajaradi. Axborotlar savol-javob shaklida yetkaziladi, ekskursantlarning ma’lumotlarga nisbatan fikri inobatga olinib, suhbatning qiziqarli bo‘lishi ta’minlanadi. Gid ularning munosabatlaridan, savollaridan kelib chiqib hikoyaga qo‘shimcha ma’lumotlar kiritishi mumkin;
- *sharhlovchi,* ya’ni gidkuzatilayotgan ob’ektlar, voqea, hodisalar haqida axborot berib, uning sabablarini izohlaydi;
- *maslahatchi*, ya’ni gid ob’ektni tushuntirib uni to‘g‘ri ko‘rish bo‘yicha maslahat beradi, ya’ni ekskursantlarni zaruriy xulosalarga kelishiga ko‘maklashadi;
- *hissiyotli lider*, gid ob’ektlar va voqealarni tahlil qiladi, muammolarga baho beradi, o‘z hissiyotlarini ekskursantlarga yetkazadi, kuzatayotgan ob’ekt yoki hodisani tushunib olishga yordam beradi.

**Nutq madaniyati.** Nutq odobi insonning umumiy ahloqini belgilovchi asosiy mezondir. «Nutq madaniyati» deganda aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos, adabiy me’yordagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday noxush xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni, adabiy til me’yorlarini

mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug‘at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish orqali erishiladi.

Lug‘aviy so‘z boyligi, grammatik to‘g‘ri, badiiy ifodalangan, mantiqiy tuzilgan, maqsadli imo-ishoralardan iborat nutq madaniy nutq hisoblanadi. «Nutq madaniyati» tushunchasi og‘zaki va yozma nutqqa tegishlidir. Har ikkisi ham mazmunli, tushunarli, ifodali va zamonaviy bo‘lishi kerak. Gidning yozma nutq madaniyati quyidagi hujjatlar bilan ishlashda namoyon bo‘ladi: asosiy va individual matnda, uslubiy qo‘llanmalarda, referat, ma’ruza, taqriz, bibliografik obrazlarda. Asosiy matn adabiy tilda, individual matn ko‘proq og‘zaki tilda tuziladi.

Til shunday ma’no-mazmunni anglatadiki, uning mavjud bo‘lishi va ifodalanishi nutq orqali amalga oshadi. Til bir tomondan nutq hosil qilinadigan va tushuniladigan qurilma sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan, mutaxassislar nutq faktlaridan xulosa qiladigan qoidalar tizimi, birliklar majmuasidir. Bu tushunchalarning har ikkalasi ham o‘zaro bir-birlariga bog‘liqdir, chunki til qurilma sifatida mohiyatni anglatadi, bu mohiyatni unda mavjud bo‘lgan qoida va birliklar orqali bilish mumkin. Nutq, birinchidan, fikr-mulohaza bildirish jarayoni, ikkinchidan, u til qurilmasi faoliyati natijasidir. Til va nutq haqida bildirilgan bunday fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, ular o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir va ayni paytda, ular o‘rtasida muayyan farqlar ham mavjudki, bularni alohida eslatish lozim bo‘ladi. Til potensial hodisa bo‘lib, kishilar ongida bolalikdan o‘zlashtirilgan gapirish qobiliyati va nutq orqali ifodalangan fikrni tushunish vositasi sifatida mavjud bo‘ladi. Nutq esa mavjud imkoniyatni voqelantirish va so‘zlashuv qobiliyatini aniq muhitda amalga oshirish jarayonidir. Nutq har bir alohida kishini individ va shaxs sifatida xarakterlovchi eng samarador vositalardan biridir. Insonlar muloqoti nutq orqali amalga oshiriladi. Uning yordamida odam o‘z fikrini, hissiyotlarini, kayfiyatini, istaklarini ifodalaydi. Nutq individual hodisa bo‘lsa-da, aksariyat hollarda biz bir-birimizni tushunamiz.

Tushunish so‘zlashish faoliyatida ayrim o‘ziga xos va umumiy xususiyatlarning mavjudligi tufayli yuz beradi. Bunday xususiyatlar muayyan til jamoasi ishlatadigan birliklar (fonemalar, morfemalar, so‘zlar, gaplar) va ulardan foydalanish qoidalarining umumiyligidadir. Umumiy birliklar va qoidalar til tizimiga mansub bo‘lib, ularning individual nutqda ishlatilishi nutqning strukturaviy asosini tashkil qiladi. Aynan shu asosda nutqning muloqot jarayonidagi vazifasi amalga oshiriladi. Gapirish va tushunish jarayoni odamlar orasida fikr almashinuv, hissiyotlarini bildirish, axborot uzatish ehtiyoji tufayli ro‘y beradi va bularning hammasi ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi. Nutqning aynan mana shu ijtimoiy asosini til tizimi tashkil qiladi. Demak, nutq umumiy va ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan tilga nisbatan individual munosabatdagi hodisadir.

**Nutq** – til imkoniyatini namoyon etish, ovozli yoki yozuvli shaklga ega insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasidir. Nutqda til imkoniyatlaridan foydalanish gidga ma’lum mavzudagi aniq bilimlar majmuini yorqin ifodalash imkonini beradi. Nutqning tushunarliligi, aniqligi va ifodaliligi so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, iboralar tuzilishi kabi ko‘pgina omillarga bog‘liq.

Nutq *tashqi* va *ichki* nutqqa bo‘linadi. *Tashqi nutq* kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lib, uning mohiyati boshqa insonlarning eshitib, tushunishiga yo‘naltirilgan. Gidning hikoyasi – tashqi nutq namunasi bo‘lib, uning vazifasi ekskursantlarning ongi va harakatlariga ta’sir ko‘rsatish, aniq ob’ektlar haqida axborotlarni yetkazishdir. Tilning ikki asosiy funksiyasi mavjud: bilimlarni uzatish va hozirgi holatni izohlash. Ekskursiyada tilning funksiyasi auditoriya bilan muloqot jarayonida bilimlarni berish, hissiyotlarni so‘zli ifodalashdir.

Har bir nutq turi va ularning tarkibiga kiruvchi nutq ko‘rinishlari notiqlikning alohida janrini tashkil etadi. Shunday ekan, har bir janr, uning tabiati bilan belgilanadigan asosiy maqsad yo‘nalishlariga va muayyan ta’sirchanlik doirasiga ega. Har bir nutq turi o‘ziga xos asosiy maqsad-yo‘nalishiga ega. Xususan, bir martalik nutqlarning asosiy maqsadi tinglovchilarga ta’sir o‘tkazish orqali nutqni «yutib chiqishdir». Bu haqda Aristotel shunday yozgan edi: «Ritorika»ning uch turi

mavjud, chunki tinglovchilar ham shuncha turda bo‘ladi. Nutq uch unsurdan tashkil topadi: notiqning o‘zi, nutqning predmeti va u murojaat etayotgan kishi; ayni u(men tinglovchini nazarda tutayapman) barcha ishning oxir maqsadidadir.

*Ichki nutq* – bu insonning ichki dunyosi nutqi, auditoriyada yetkazilishi kerak bo‘ladigan fikrlarning oldindan shakllanishidir. Inson biror predmet haqida o‘ylayotganida o‘zining ichki ovozi bilan dialog yuritadi. Ichki nutqi yordamida fikr yuritadi, unda chizmalar, obrazlar,jadvallar kabi yordamchi vositalardan foydalanadi. Ichki nutq insonning olgan bilimlariga tayanadi. Gid ichki nutq yordamida ekskursiya mazmunini to‘liq yoki qisman hayolida takrorlaydi. Har bir gid mantiqiy mashqlarni hal qilishda o‘z-o‘zi bilan muloqot qilib, ichki nutq imkoniyatlarini to‘liq qo‘llashi kerak.

**Til stili (uslubi)** – bu tilning turli-tumanligidir. Odamlarning maishiy hayotdagi tili rasmiy muhitdagi tildan, ilmiy referatlarning tili umumta’lim maktablari pedagoglari tilidan farq qiladi. Tilning quyidagi stillari mavjud: badiiy, ishchan so‘zlashuv (maishiy), ilmiy, ommaviy, kasbiy-texnikaviy.

Gid tilining stili fikrlarning so‘zdagi ifodasi, nutqining tuzilishidir. Boshqa stillardan uni hikoyadagi o‘ziga xos shakli va usuli ajratib turadi (masalan: aniqlik, mantiqiylik, obrazlilik, ifodalilik, hissiyotlik, tozaligi,tilning boyligi va h.k.)

Gid tilining individual stili uning kasbiy mahorati darajasi, nutq madaniyatini belgilaydi. Gid tili stilining o‘ziga xosligi uning vazifalariga bog‘liq:

- tarixiy voqeaning tashqi kartinasini qayta tiklash;
- kuzatilayotgan ob’ekt, hikoya qilinayotgan voqea, tabiat hodisalariga isbotiy tavsiflar berish;
- uzoq o‘tmishning tarixiy holatini ekskursantlar his etishini ta’minlash.

Gid nutqida «shunday qilib», «xullas», «qisqasi» kabi standart so‘z va iboralar o‘rinsizdir. Nutq jilosi ham muhim. Gid nutqining ohangi butun ekskursiya davomida yuqoriroq bo‘lishi kerak.

Hikoyaning xarakteri unga qo‘yilgan vazifalarga bog‘liq ravishdao‘zgaradi. Hikoya darak beruvchi yoki rekonstruksiyalovchi xarakterda bo‘lishi mumkin.

Darak beruvchihikoya – bu biror voqea, uning sodir bo‘lishi jarayoni haqidagi hikoyadir. Hikoya qiluvchi ekskursantlarda voqealarning qanday va qayerda sodir bo‘lganligi haqida tasavvur uyg‘otadi. Ma’lumotlarni bayon etishning darak stili ko‘pgina ekskursiya jarayonida uchun xosdir. Rekonstruktiv hikoyada ekskursantlarning hayoliga u yoki bu predmetni avvalgi holatini qayta tiklash vazifasi qo‘yiladi (masalan: bizning davrimizgacha yetib kelmagan Afrosiyob qadimiy shahri). Ma’lumotni qabul qilish jarayonini boshqarish orqali gid ekskursantlarga o‘z ongida yaratgan kartinani ko‘rishni tavsiya etadi.

**Nutning tempi(tezligi).** Hikoyaning mazmunidan kelib chiqib ekskursiya jarayonida nutq tempi tezlashadi yoki sekinlashadi. Nutqning tez, o‘rta, sekin, muloyim templari mavjud. Nutq mazmuni samarali qabul qilinishi uchun uning tempisokin, bir maromda bo‘lishi kerak.

Ekskursiya mavzularini tayyorlash jarayonida, hikoyani tuzishda gid qo‘lida soat bilan mustaqil mashg‘ulotlar o‘tkazishi maqsadlidir. Nutqning tezligi daqiqasiga 75 ta so‘z, o‘rtachasi – 60 ta so‘z, sekini - 45 ta so‘zdan iborat bo‘ladi. Hikoya qilish jarayonida tez gapirish (daqiqasida 80 va undan ziyod so‘z) noto‘g‘ridir, bu tinglovchilarni zeriktiradi, ekskursiya ma’lumotlarini tahlil qilishga halaqit beradi. Tanaffussiz tez tempdagi nutqlarni ekskursantlar qabul qilmaydi. Shu bilan birga butun ekskursiya jarayonida bir xil tempni saqlab turish ham noto‘g‘ridir. Gid nutqida asosiy holatlar boshqa ma’lumotlardan ko‘ra sekinroq hikoya qilinadi. Asosiy holatlarni rivojlantiruvchi materiallar tez bayon etiladi.

Nutqning kamchiligi sifatida maxsus atamalarni, so‘zli shtamplarni, uzun iboralarni haddan ziyod ishlatilishini ko‘rsatish mumkin. Bular eshituvchilar asabiga tegishi va diqqatning pasayishiga olib keladi.

Yaxshi diksiyaga ega bo‘lish gid uchun muhimdir. **Diksiya** –bo‘g‘inlar, so‘zlar va butun bir iboralarni aniq, tushunarli talaffuz etishdir. Duduqlanish, so‘zlarning qo‘shimchalarini to‘g‘ri qo‘ymaslik yoki «yutib yuborish» nutqning kamchiliklariga kiradi.

Gid o‘z tili ustida ishlashni nutq texnikasini (nafas olish, ovoz, diksiya) egallashdan boshlaydi. Diksiya aniq va tushunarli bo‘lishi muhimdir. Eng avvalo noaniqliklarni, tushunarsiz nutqni bartaraf etib, ekskursantlar tushunishi mushkul bo‘lgan so‘zlar talaffuzini takrorlab olish kerak. Keyin talaffuzning tezligiga e’tibor beriladi. Har bir so‘z shu jumladan, xorijiy so‘zlar, ism va familiyalar aniq aytilishi, ekskursantlarga tushunarli bo‘lishi lozim. Gid o‘z nutqining ifodasi (intonatsiya) ya’ni so‘z va gaplarni talaffuz etishda ovozning past va balandligini kuzatishi zarur. Nutq ifodasi mantiqiy isbotli bo‘lishi kerak, chunki hikoyaning negizida nafaqat fikr balki hissiyot ham turadi. U hikoyaga «jon» bag‘ishlaydi, gidning ma’lumot mazmuniga munosabatini ko‘rsatadi.

Hikoya ifodasining yana bir vazifasi – biror fikrni mantiqiy yakuniga yetkazishdir. Ifodali o‘qish muhim faktlarga urg‘u berish imkonini, hikoyaga tantanaviylik, kutilmaganlik, so‘rovlilik tusini beradi. Ifodaning o‘zgarishi hikoya mazmunidan kelib chiqadi, shuning uchun gidning alohida so‘zlar va butun bir iboralarni har xil ohang jilosida talaffuz eta olishi katta ahamiyatga ega.

Ba’zi gaplar ifodasi so‘rov, darak, undov, tasdiqlovchi, hikoyaning ohangi quvonchli, qayg‘uli, tantanali bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi gidning hikoya mazmuniga nisbatan munosabatiga bog‘liq. Hikoyaning hissiyotli jilosi haqiqiy chiqishi uchun ekskursiya xizmatini o‘tkazishda tayyorgarlik ko‘rishda hikoyaning ohangi va ifodasini aniqlab olishi kerak.

Gid so‘zli, iboraviy, mantiqiy urg‘ularni to‘g‘ri ishlatishi lozim. Urg‘u bu so‘z yoki so‘zlar guruhini ovoz kuchi yoki ohangni ko‘tarish bilan ajratishdir. Gid o‘z nutqi ustida uzluksiz ishlashi  lug‘aviy zahirasini boyitadi, hikoyada to‘g‘ri so‘zlarni saralab va tanlab ishlatish imkonini beradi, keraksiz so‘zlardan, standart iboralardan nutqni «tozalash» shuningdek, o‘z nutqining individual uslubini yaratish imkonini beradi.

Dastlab maqbaraga mana bu janubiy eshikdan kirilgan. Ammo Amir Temurning piri Mir Sayyid Barakaning bosh qismidan kirishni Mirzo Ulug‘bek hurmatsizlik deb hisoblaganligi bois, uning farmoniga binoan sharqiy eshik 1425-yilda ochilgan. Ulug‘bek davrida maqbaraga kirish uchun qurilgan eshikning yoni va tepalari nafis bezatilgan. Ilgari eshik tepasida: «Bu shavkatli Amir Temurning qabri...» deb yozilgan koshinli lavha bo‘lgan (bu plita hozir Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanadi). Shuningdek, 1868-yilda maqbara devoridagi darvozasi o‘g‘irlangan. Vereshagin Temur saroyi darvozalarini aks ettirgan. Bu darvozalarning biri Londonda, biri Ermitajda saqlanmoqda. Marhamat endi esa Mirzo Ulug‘bek tomonidan ochilgan sharqiy eshik orqali ichkariga kirsak!

**Maqbara ichi va qabrtoshlar.**Maqbara g‘oyatda nafis bezatilgan. Devorning pastki qismida ko‘kimtir shaffof oniks toshidan ishlangan izora bor. Oniksning choklari ko‘kimtir toshlar terib bezatilgan.

Maqbaraga rangdor oynalar solingan panjarali darchadan yorug‘lik tushgan. Shu oynalardan o‘tib tushgan quyosh nuridan maqbara ichi rang-barang ranglar bilan tovlanib turgan. Maqbara gumbazining ichi bezatilishida «pap’e mashe»-

uslubidan foydalanilgan. Bu maxsus Samarqand qog'ozi bir-biriga yelimlanib, maxsus shaklga keltirilgan, oltin suvi yugurtirilgan va maxsus mixchalar bilan peshtoq ichki qismiga bezak sifatida qoqilgan.

Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoga qilgan uzoq safaridan qaytib kelayotganda to'satdan kasal bo'lib vafot etadi. Shahzodaning jasadi Samarqandga olib kelinib, majmuaning janub tomonidagi ayvon orqasidagi dahmaga dafn qilinadi. Amir Temur shahzodaga atab maqbara qurish haqida farmon beradi. Shundan keyin daxma ustiga sakkizyoqli bino quriladi. Sharq tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy bu bino *«osmon kabi baland gumbaz, devorlarining pastki qismi zarhal va lojuvard bilan bezatilgan marmar toshdan qilingan»*deb ta'riflaydi. Lekin qurilish ishlarini Amir Temur oxiriga yetkazmagan. U 1405-yilning 18-fevralida vafot etadi va Muhammad Sulton jasadi yoniga dafn qilinadi.

Maqbaraning o'rtasiga o'rnatilgan sag'analar ustida Temuriylarga bag'ishlangan yozuvlar bor. Markaziy toshga e'tiboringizni qaratmoqchiman! Amir Temurning qabri ustiga, qo'yilgan to'q yashil rangli nefrit tosh diqqatni o'ziga jalb etadi. Mirzo Ulug'bek 1425-yilda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonganda qo'lga kiritgan mollar ichida ikki bo'lak nefrit ham bo'lgan. Shu ikkala toshga yaxshilab ishlov berib, bir-biriga ulab, Mirzo Ulug'bek Amir Temur bobosining qabri ustiga qo'ydirgan. Siz ko'rib turgan panjaralar ham o'sha davrda Ulug'bek farmoniga binoan o'rnatilgan va bizgacha o'z holida saqlanib kelgan.

1740-yilda Eron shohi  Nodirshoh Buxoro xonligini zabt etgan vaqtida (o'sha vaqtda Samarqand Buxoro xonligiga qarar edi) Amir Temur qabri ustidagi toshni Mashhadga olib borishga buyruq bergan. Yo'lda nefrit tosh aravadan tushib ketib singan. Lekin, shakkok bo'lishdan cho'chigan hamda Eronda vabo kasalligi tarqalganidan so'ng ruhoniylarning maslahati bilan Nodirshoh bu niyatidan qaytib, o'sha zamonlar uchun uzoq va qiyin bo'lgan safarlardan keyin toshni yana qaytadan joyiga keltirib qo'ydirgan.Shuningdek, bu yerda ko'plab boshqa temuriyzodalar dafn etilgan. Amir Temur vafotidan keyin taxt uchun o'zaro urushlar boshlanib ketib, maqbarani qurib tugatishga xalaqit beradi. Mamlakat 1409-yildagina tinchiydi. Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo Hirotni poytaxt

qiladi. Mirzo Ulug‘bekni esa Samarqand hokimi etib tayinlaydi. U mamlakatda madaniyat va qurilish ishlarini rivojlantirib yuboradi. Mirzo Ulug‘bek buyuk bobosiga hurmat yuzasidan sakkizyoqli maqbarani Temuriylar avlodi dafn qilinadigan maqbaraga aylantiradi. Maqbara bitgach, Amir Temurning ma’naviy ustozi Mir Sayyid Barakaning jasadi ham shu maqbaraga ko‘chiriladi. Amir Temurning o‘zi ustozining oyoq tomoniga dafn etiladi. Ba’zi rivoyatlarga qaraganda, Amir Temurning o‘zi shunday vasiyat qilgan ekan. Binoning ichi yangidan bezatiladi, maqbara sahniga daxmalar qo‘yilib, atrofi nafis marmar toshdan panjara qilinadi. Maqbarada Amir Temurning o‘g‘illari-Mironshoh va Shohruhlar ham dafn etilgan.

1449-yilda Mirzo Ulug‘bek ham shu maqbarada dafn etiladi. Shuningdek, bu yerda ko‘rib turgan ikkita kichik qabrchalar taxminlarga ko‘ra, Ulug‘bekning bolalikda vafot etgan farzandlarining qabrlari hisoblanadi. Yuqorida turgan qabr esa Said Umarning qabri bo‘lib, rivoyatlarga ko‘rau inson barcha kulollarning piri bo‘lgan. Uning ustiga o‘rnatilgan belgi ham buning isbotidir.

1994-1996-yillar Samarqand shahriga yurtboshimiz tomonidan «Amir Temur» ordeni berilishi munosabati bilan maqbarada katta hajmdagi ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda bu joy mamlakatimizdagi eng chiroyli majmualardan biri hisoblanadi.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



**10.1.-rasm. Amir Temur maqbarasining tashqi ko'rinisi.**


8
7
6
5
4
3
2
9
10
1

**10.2.-rasm. Amir Temur maqbarasini ko'rsatish tartibi.**

## 2-ob’ekt. REGISTON MAYDONI

Hurmatli ekskursantlar! Siz bilan hozir turgan joyimiz ko‘hna Samarqandning yuragi degan nomga sazovor bo‘lgan joy-Registon maydoni hisoblanadi. «Registon» so‘zi forschadan tarjima qilinganda «reg» - qum, qumli, «iston»-joy, makon degan ma’nolarni bildirib, «Registon» so‘zi-qumli joy deganidir. Registon maydoni obidalariXV-XVIIasrlarda qurilgan bo‘lib, mukammal kompozitsiyani tashkil etadi va uchta madrasadan iborat. Ular to‘g‘ri to‘rtburchakli, sathi 75x63 metr. bo‘lgan maydonning uch tomonida joylashgan.

Registon maydoni o‘zining uchta katta peshtoqi va baquvvat arklarni ushlab turuvchi ikki oshiyonli oynasiz devorlari bilan butun dunyodan keluvchi turistlarni hayratga soladi.

Hurmatli ekskursantlar! Endi esa, qadimgi va bugungi Samarqandning yuragi hisoblangan Registon maydonidagi ob’ektlarni tomosha qilishga barchangizni taklif qilaman! Marhamat!

## ULUG‘BEK MADRASASI(1417-1420-yillar)

**Ulug‘bek madrasasi peshtoqi.**Hurmatli ekskursantlar!1417-1420-yillarda aynan shu joyda olim, matematik, astronom Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy sayi-harakati bilan musulmon oliy o‘quv yurtiga asos solingan. *«Bu ilm binosining asoschisi ulug‘ sulton, sultonning o‘g‘li, dunyoning va asrlarning mutaffakkiri Ulug‘bek Ko‘ragoniy, ...balandligi osmonga qadar ikki o‘lcham, og‘irligidan yer yuzining cho‘qqisi titraydi»*, degan so‘zlar madrasa peshtog‘ida yozilgan. Bu yerda boshqa madrasalarga o‘xshab, faqat ilohiyot fanlari o‘rgatilmagan. Ulug‘bek aniqfanlarga ko’proq qiziqqan. Birinchi darslarni Ulug‘bekning ustozi, ulug‘ astronom Qozizoda Rumiy o‘tkazgan. Birinchi mudarris (professor) etib olim Muhammad Havodiy tayinlangan. Ulug‘bek ushbu madrasaga ta’lim berish uchun eng mashhur ilm namoyondalarini to‘plagan. Talabalarining soni yuztaga yetgan va ular madrasa ichidagi 48 ta hujralarda yashashgan.

Ulug‘bek madrasasining saqlanib qolganqiyofasining o‘zi, o‘tmish me’morchilik san’ati naqadar yuksak ekanligidan darak beradi. Madrasa to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, sathi 56x81 metr. Registonga qaragan tomoni bosh tomon bo‘lib, u «qo‘sh» uslubidagi peshtoq, yon tomondan mahobatli minoralardan iborat.

Peshtoqqa e’tiboringizni qaratmoqchiman! Ulugbek davrida qurilgan bu madrasaning asosiy ornamental bezagi sifatida biz markazda «yulduzlar»ni ko‘rishimiz mumkin, shuningdek peshtoq «morpech» (ilon tovlanishi) naqshlari bilan xoshiyalangan bo‘lib, bu ham o‘z navbatida sharq falsafasining bir ma’nosini o‘zida mujassamlashtirgan. *«Har bir talaba doim  yodida tutishi lozim bo‘lgan aqida, u ham bo‘lsa har bir inson bu dunyoga keladi, komillik sari intiladi, komillikka erishadi, ammo xohlaydimi yo‘qmi, baribir bir kunmas bir kun, qariydi va nihoyat bu dunyoni tark etadi. Aynan shu orqali har birimiz doim faqatgina bu dunyoda qoldiradiganimiz yaxshi nom ekanligini  unutmasligimiz lozim».*

Endi esa hurmatli ekskursantlar madrasaning ichiga yo‘l olamiz!

**Ulug‘bek madrasasidagi hujralar.** Hurmatli ekskursantlar! Siz ko‘rib turgan to‘rtburchak hovlining sathi 30x40 metr. Mana bu xonachalar «hujralar» deb nomlanadi. Aynan shu xonalarda Ulug‘bek madrasasida yuzga yaqin tahsil olgan talabalar yashashgan. Hujralarga mana shu kichkina eshiklardan kirilgan. Nima sababga ko‘ra eshiklar bunday kichkina? degan savol sizni qiziqtirgan bo‘lsa kerak. E’tiboringizni har bir eshikning ustidagi oyatga qaratmoqchiman! Har bir shu yerda tahsil olgan talaba birinchi navbatda oyatga hurmatini bildirgan holatda, o‘zi yashagan va tahsil olgan bilim dargohiga, xonaga hurmat yuzasidan egilib kirgan. Hujralarning sathi 3x3,7 metryoki 3,2x4,6 metr bo‘lib, to‘rida yordamchi xona ham bor. Havo va yorug‘lik hujralarga eshik orqali yoki eshik tepasidagi panjarali oynachalardan kirgan. Qish kunlari isitish uchun sandal ishlatilgan. Devorlarning qalinligi yoz kunlari issiqdan saqlab, qish kunlari issiqyo‘qolishiga yo‘l qo‘ymagan, lekin zahlikdan saqlay olmagan. Shuning uchun uxlash joylari yog‘ochdan yasalib, pastdan ikki metr balandlikda bo‘lgan. Ustiga chiqish uchun hujra ichida yog‘och zinapoya o‘rnatilgan. Ikkinchi qavatdagihujralarga devor

ichiga g‘ishtdan taxlangan o‘rama zinalar orqali chiqilgan. Ikkinchi qavatdagihujralarni bir-biri bilan tokchasimon peshayvonlar bog‘lagan. O‘rama zinalar orqali madrasa tomiga va minora ustiga ham chiqish mumkin. Madrasa devorlari pishgan g‘ishtdan taxlanib, oralari ganch qorishmasi bilan to‘ldirilgan. Darsxona va xususan ichki xonalardagi bezak izlari qolmagan. Bularning hammasi ganch bilan suvalgan va ko‘p marotaba oqlangan. Taxmin qilish mumkinki, hujralarning ichki bezagi yelimli bo‘yoqlar bilan ishlangan.

Hurmatli ekskursantlar madrasa ichida ko‘rib turganlaringizdek, yozgi darsxonalar, katta darsxona, masjid hamda mudarrislar xonasi ham mavjud bo‘lgan.

**Hovlidagi haykallar.**E’tiboringizni mana shu yerdagi haykalga qaratmoqchiman! Ko‘rib turganingizdek, o‘tirgan holatda ko‘rsatilgan Mirzo Ulug‘bek hamda uning atrofidagi madrasa mudarrislari, uning zamondoshlari to‘planishgan.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).

## SHERDOR MADRASASI (1619-1636-yillar)

**Sherdor madrasasi peshtoqi.**Hurmatli ekskursantlar!Qqarshingizda Sherdor madrasasi. Sherdor madrasasi 1619-yili Mirzo Ulug‘bek xonaqosining vayronalarga aylangan joyida, Bahodir Yalangtush amri bilan boshlanib, 1636-yilida qurib bitkazildi. Qurilish 17 yil davom etgan. «*Ushbu inshoot me’mor Abdul Jabbor san’ati bilan barpo etildi»* degan so‘zlar peshtoqning ichki arkida qora ustidan oq harflar bilan yozilgan.

Me’mor Abdul Jabbor Sherdor madrasasini O‘rta Osiyo me’morchiligiga xos uslubda yaratdi. Bu binoning rejasi Ulug‘bek madrasasiga o‘xshash bo‘lib, lekin undagi katta darshona va masjid bu binoda mavjud emas. Sherdor madrasasidagi naqshdor ohanglar Ulug‘bek madrasasidagidek bo‘lib, boshqa uslubda, ayrim joylarida esa yangi mavzuda qo‘llanilgan.

E’tiboringizni madrasa peshtoqiga qarating! Bosh peshtoqgulobasi tillasimon sariqohangda bo‘lib, unda g‘aroyib binafsha rang, qora yo‘l-yo‘l yo‘lbarslar, kulrang - ko‘k dog‘li oqkiyiklarni quvib yetishi, yo‘lbarslar ortida esa nurli quyosh tasvirlangan. Bu tasvirni ikki xil tarzda ta’riflash mumkin. Birinchisiga ko‘ra, qora yo‘l - yo‘l yo‘lbarslar bu Bahodir Yalangtushbiy, oq kiyiklar uning dushmanlari, quyosh esa doimo uning yo‘lini ochib berguvchidir. Ikkinchi ta’rifga ko‘ra esa, yo‘lbarslar bu - talabalar, oq kiyiklar bu - bilim, quyosh esa ularning bu yo‘llarini doimo nurafshon etuvchidir.

Hurmatli ekskursantlar mana shu qabr oldiga yo‘l olsak.

**Muhammad Qotong‘uning qabri oldida.**Sizko‘rib turgan qabr Muhammad Qotong‘uning qabrlari hisoblanib, bu insonqassoblik bilan shug‘ullanganlar, ma’lumotlarga qaraganda aynan Sherdor madrasasining qurilishida ustalarga go‘sht ta’minotiga homiylik qilganlar. Aynan shu ishlari sharafiga vasiyatlariga ko‘ra shu joyda ko‘milganlar. Rivoyatlarga ko‘ra bu inson barcha qassoblarning piri hisoblanib, mahalliy aholi bu insonning qabrlari oldiga kasalmand uy hayvonlarini olib kelib qo‘yishar, uy hayvonlari esa sog‘ayishar ekan.

E’tiboringizni mana bu archasimon tarzda terilgan g‘ishtli yo‘lakchaga qaratmoqchiman. XV asrda aynan shu maydondagi barcha yo‘lakchalar shu ko‘rinishda bo‘lgan. Hozir esa siz ko‘rib turgan yo‘lakchaning bir bo‘lagi bizgacha XV asrdan yetib kelgan.

Endi esa hurmatli ekskursantlar Sherdor madrasasining ichiga yo‘l olsak! Marhamat!

**Sherdor madrasasi hovlisi.**Hurmatli ekskursantlar! Siz bilan Sherdor madrasasining ichki qismidamiz. Hovli o‘lchovi katta bo‘lib, sathi 37x37 metrni tashkil etadi. Hovlining peshayvonidagi moviy sirsopol naqshlari foniga Sherdor madrasasi haqidagi she’r oq harflar bilan yozilgan. Uning tarjimasi quyidagicha: *«Lashkarboshi, qo‘mondon, odil Yalangto‘sh! Garchi kamon o‘qidek balandlarga ko‘tarilgan uning kamoloti bo‘lsa bu durlardan terilgan so‘zdir. U shunday madrasa yaratadiki, yer bilan osmon qo‘shilishi birla ularning bo‘ysunish timsolidir. Aql burgutining shiddatli va mohir qanotlarining parvozi, uning*

*cho'qqilariga yillar ichra yeta olmas. Uning mamnun minoralar cho'qqisiga g'aroyib fikrlar arqonida mohir darboz ham asrlar ichra chiqa olmas. Peshtoqning kamonsimon arkini me'mor yaratganda, falaklar uni yangi oyga o'xshatib lol qoldirar. Garchi Yalangtush Bahodir uning asoschisi ekan, uning asos sanalari Yalangtush Bahodir so'zlaridan boshlanur».* Haqiqatanham, Yalangtush Bahodir ismidagi harflarni o'rniga to'g'ri keladigan raqamlarni qo'ysak, Sherdor madrasasi asos solingan hijriy 1028, melodiy 1619-yilni ko'ramiz.

Ulugbek madrasasi bilan taqqoslaganda Sherdor madrasasining hovlisidagig'arb devorlari sirsopol qoplamalaridagi bezaklarida umuman yangicha mavzu qo'llanilgan. 200 yil davomidagi aynan Samarqand naqshinkor bezaklaridagi o'zgarishlarni farqlash oson. Naqshlarda ochiq sariq rang ko'p ishlatilgan. Ulug'bek madrasasida ochiq sariq rang deyarli ishlatilmagan. Sherdor madrasasining ichki hovlisi katta - katta bo'laklardan iborat marmar toshlar bilan qoplangan. E'tibor qaratgan bo'lsangiz tashqaridagi shovqin ichkariga ya'ni, madrasaga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi. Ko'rib turganingizdek, bino panjara bilan to'silgan bo'lib, o'sha paytlarda hamma madrasalarda dars davomida hamma eshiklar berkitilib, tashqarida shovqin -so'ron bo'lib turgan bo'lsada, ichkarida faqat tinchlik muhiti saqlanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).

## TILLAKORI MAJMUASI (1646-1660-yillar)

**Tillakori majmuasi peshtoqi.**Hurmatli ekskursantlar! Qarshingizdagi masjid-madrasa Registonning uchinchi tarafida Bahodir Yalangtush farmoniga binoan 1646-1660-yillarda (14 yil davomida) qurilgan, Tillakori nomi bilan atalgan yangi masjid-madrasa binosi hisoblanadi. Binoning bosh tomoni maydon tomonini yopib, Registon maydonining ko'rinishini mukammalashtirishi lozim edi. Asta-sekin to'kilayotgan Bibixonim jome' masjidining holati shunday darajada yomon

ediki, unda nomoz o‘qish xavfsiz emas edi. Shuning uchun Tillakori madrasasi va hovliningg‘arb tarafida masjid qurilishihaqidaqarorqabulqilindi. Tillakori masjidining qurilishi o‘n yilga yaqinlashganida Yalangtush Bahodir olamdan o‘tadi. Boshlangan qurilishning nihoyasiga yetkazish e’tiborsiz qoldi. Masjid qurilishi oxirigacha yetkazilmasdan, ikkinchi qavat bilan gumbaz berkitilmay qoldi. Registonning qolgan ikki madrasasidan bu madrasa yoni old tomoni yo‘llanmasi, ikki qator peshayvon mavjudligi, burchaklarda minoralar yo‘qligi bilan ajralib turadi. Minoralar o‘rnini moviy gumbazchalar bilan yopilgan chiroq o‘rinli kichik bo‘yli burjlar egallagan. Old tomonida peshayvonlar o‘rnatish uslubi ikki tomondan yopiqo‘lkan devor va arkli peshtoqlar orasida mavjud binoning maydon muhitidagi ma’nosini yanada kuchaytiradi.

O‘ng tomonda Shayboniylar dahmasi, keyin esa Chorsu «Toqi telpakfurushon» ya’ni bosh kiyimlar sotiladigan rastani ko‘rishingiz mumkin.

Hurmatli ekskursantlar keling Tillakori majmuasiga kirsak!

**Tillakori majmuasi hovlisi.** Hurmatli ekskursantlar! Tillakori majmuasining qurilish va bezak uslublari O‘zbekiston me’morchilik obidalaridagi boy an’analarning biridir. Tillakori masjid-madrasa qurilishining asosiy sababi Bibixonim jom’e masjidining xaroba holatiga aylanganligi va shaharda namoz o‘qish uchun katta masjid kerakligi sababli, aynan shu masjid-madrasa qurilishi Samarqand hokimi Bahodir Yalangtush tashabbusi bilan boshlanadi. Noto‘g‘ri shakldagi to‘rtburchak reja Registon maydoni tarafidan kirish peshtoqi va uchta eshiklardan iborat. Hujralarhovlining uch tarafida va maydon tomonda joylashgan. Masjidning boy naqshlarida tilla suvi yuritilgan va katta o‘rta xonadan iborat (Tillakori so‘zi *«tilla bilan qoplangan»* degan ma’noga ega) bo‘lib, yana ikkita yonbosh xonalardan tuzilgan, ularning tepasi ark va g‘isht ustunlaridagi gumbazlar bilan yopilgan.

Aytib o‘tganimizdek, masjid-madrasa Samarqand hokimi Bahodir Yalangtush farmoniga binoan quriladi. Ammo, Bahodir Yalangtush vafoti tufayli, Tillakorining qurilishi oxirigacha yetkazilmaydi. Natijada yillar o‘tgan sayin masjid-madrasaning umumiy ko‘rinishida nuqsonlar ko‘payib boradi. Ammo

shunga qaramasdan, Tillakori masjid-madrasasi Registon maydonining shakllanishiga bugungi kundagi takrorlanmas ansambl tashkil etilishiga olib keladi.

Hurmatli ekskursantlar! Marhamat endi Tillakori masjid-madrasasining *«Tilla bilan qoplangan»* deb nom olgan masjidi tomon yo‘l olsak.

**Masjid ichi.** Hurmatli ekskursantlar! Ko‘rib turganingizdek, biz mahobatli hamda juda ham chiroyli tarzda bezatilgan Tillakori masjididamiz. E’tiboringizni masjidning ichki bezaklariga qaratmoqchiman. Masjid gumbaziga e’tibor qiling, ko‘rib turganingizdek, masjidning gumbazi ustma- ust joylashgan ikkita gumbazdan iborat, Siz hozir ko‘rib turgan gumbaz pastki gumbaz hisoblanib, e’tibor qiling pastdan gumbazga qaraganda uning sirti dumaloq bo‘lib ko‘rinsada, aslida gumbazning sirti tekis hisoblanadi. Masjid gumbazining dumaloq bo‘lib ko‘rinishiga esa bezaklarning markazga qarab kichrayib borishi natijasida erishilgan. Yon devorlarda ko‘rib turganingizdek yulduzsimon muqarnaslar bilan bezatilgan bo‘lib, qubba tomoni bezaklari ham o‘z tuzilishi jihatidan bir kompazitsiyani tashkil etadi. Siz ko‘rib turgan qo‘sh uslubidagi bezak «qubba» deb nomlanib, Makka va Madina tomoniga qaratilgan. Siz ko‘rib turgan zina esa, juma namozi kunlari ishlatilgan. Umuman olganda aynan shu joyga 2 kilogrammga yaqin miqdorda maxsus tilla ishlatilgan.

**Masjid ichidagi ko‘rgazma.** Hozir esa hurmatli ekskursantlar Tillakori majmuasidagi «Registon» maydoniga bag‘ishlangan ko‘rgazmasi bilan tanishishingiz mumkin.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



**10.3.- rasm. «Registon» maydonining umumiy ko’rinishi.**




**10.4.-rasm. «Registon» maydoniniko’rsatish tartibi.**

## 3-ob'ekt. ULUG‘BEK OBSERVATORIYASI(RASADXONASI) (1424-1428-yillar)

Hurmatli ekskursantlar! Siz bilan hozir Ulug‘bek rasadxonasida ekskursiya o‘tkazamiz. Bu joy XV-asrning 20-yillarida qurilgan, shuningdek, dunyo astronomiya maktabining rivojini ta’minlashga xizmat qilgan maskan hisoblanadi. Hozir Sizda aynan shu joy bilan yaqindan tanishish imkoni mavjud. Marhamat ehtiyot bo‘lib zinadan tepaga qarab ko‘tarilamiz.

**Observatoriya qarshisida, bosh bino oldida.**Mirzo Ulug‘bek 1409-yilda taxtga o’tirdi.Samarqand Mirzo Ulug‘bek davlatining poytaxti edi. Ulug‘bek davrida shahar yanada obodonlashtirilib, Movarounnaxrning ilmiy va madaniy markazi bo‘lib qoldi. Ulug‘bek asosiy vaqtini ilmga bag‘ishlab, Samarqandda matematika va astronomiya fanining eng ilg‘or olimlarini to‘pladi. Uning farmoniga binoan Samarqandning shimoliy-sharqida observatoriyaquriladi. Ulug‘bek observatoriyasi Samarqanddagi XV-asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Bino uning farmoyishi bilan 1428-1429-yillarda Ko‘hak (Cho‘ponota) tepaligida, Obirahmat arig‘i bo‘yida bunyod etilgan. Observatoriya silindr shaklida uch qavatli, balandligi 30,4 metrdan iborat o‘lkan bino bo‘lib, unda radiusi 40,2 metrli gigant sekstant (ba’zi manbalarga ko‘ra kvadrant) bo‘lgan. Sekstantning janubiy qismi yer ostida joylashgan bo‘lib, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 metr baland bo’lgan.Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga mos keladi.

Mirzo Ulug‘bekningo’limidankeyinobservatoriyaningilmiyishlaribirqanchavaqtdavometib, keyinchalikvayronagaaylangan. Uzoqvaqtgacharasadxonaningjoyima’lumemasedi. 1908-yildaarxeologV.L. Vyatkintomonidanuningjoyitopildi.

XIXasr 90-yillaridaV.L.Vyatkinobservatoriyahaqida «Boburnoma»dagi (XVIasr) vaXIXasrning 30yillaridagitarixiyasarlardan bo’lganSamariya» asariningma’lumotlardanfoydalanadi. Bu ikkala asar rasadxonaning Obi-Raxmat

arig‘iga yaqinKo‘hak tepaligida joylashganligi to‘g‘risida xabar beradi.XV asr vaqf hujjatlarini o‘rgana turib, V.L. Vyatkinobservatoriyaning Naqshi-jahon, Obi-Raxmatsuvi oldida Tollirasad (poi-rasad) yerining eslatilishini uchratadi.

**Observatoriyatarixi.**1908-yildaV.L.Vyatkinarxeologikqazuvishlarigakirishadi,buarxeologikqazuvishlari 1908, 1914 va 1946-1948-yillardahamolibborilgan. Tekshiruvlarda observatoriyaning binosi aylana shaklda (radiusi 40 metrdan ortiq bo‘lganligi aniqlanadi. 1908-yilda observatoriya asbobining yer osti qismi sekstant (kvadrant) topiladi, 1914-yilda uning ustiga g‘ishtli bino qurilib, uning vayron bo‘lishidan saqlab qolish chorasi ko‘rildi.Sekstant(kvadrant)dan tashqari katta zal, bir necha yo‘laklar, katta bo‘lmagan kabinetlarjoylashgan rasadxona binosi ssilindrik shaklda bo‘lib, Boburning ma’lumoticha balandligi 30 metr, binoning devorlari sirli koshinlar bilan qoplangan.

Observatoriyahaqidato‘laroqma’lumotlarniXVasrtarixchisiAbdurazzoqSamarqandiyberadi. U Hirotda yashab, Ulug‘bek hayot paytida Samarqandda bir necha marta bo‘lgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, observatoriyaning devorlarida osmon jismlari (sfera) gradus, daqiqa, soniyalar bilan tasvirlangan. Rasadxona astronomik sxema va xaritalar, dunyo geografiyasining iqlimlar tasviri: tog‘lar, cho‘l va dengizlar, to‘qqizsayyoralarning modellari, yulduz turkumlariningxaritalari, yer sharining tasviri tushirilgan globusi bo‘lgan. Observatoriyada aniq vaqtni belgilaydigan soat bo‘lgan. Shuningdek, rasadxonada qimmatli ilmiy qo‘lyozmalar bo‘lib, ularning taqdiri hozirgacha ma’lum emas.

Observatoriya qurilishining muddatlari haqida 2 xil ma’lumot bo‘lib, biri XIX asrning «Samariya» tarixiy asariga asoslangan 1424-1428-yillar beriladi.Mirzo Ulug‘bek davri tarixchisining ma’lumoticha 1417-1420-yillar beriladi. Shu davrda Ulug‘bekning farmoniga binoan Samarqand va Buxoroda madrasalar qurilgan.

**Observatoriyaichida.**Samarqanddama’lumbo‘lganastronomlarningilmiykengashito‘planib, undaUlug‘bekastronomikjadvaltuzishzarurligini,observatoriyaqurilishiishlaribilanb

og‘liqbo‘lganmasalalarniko‘taradi (1417-y.) vao‘shayilningo‘zidaSamarqanddaastronomikkuzatuvlarboshlaydi. Kuzatuvlar 30yildavometadi, ya’nibarchasayyoralarningquyoshatrofidaaylanishikuzatiladi va 1447-yildatugatiladi.Bu davrga kelib (1447-y.) «Ziji Ko‘ragoniy» asari tugatiladi.Observatoriyadagi kuzatuvlar oddiy ko‘z bilan, ya’ni optik asboblarsiz o‘tkazilgan. Teleskop XVIII asrning boshida ixtiro etilgan.

Observatoriyaning asosiy asbobi sekstantning (kvadrant) radiusi 40 metr, yoyning uzunligi 63 metrga yetgan. Bu Sharqdagi ma’lum asboblardan eng yirigi bo‘lib, Marog‘adagi (Ozarbayjon) sekstantning radiusi 3 metrga yaqin edi. Beruniy o‘lkan radiusli sekstant haqida (15 tirsak) ma’lumot beradi.

Quruvchilar bundayo‘lkan asbobni joylashtirishning qulay usulini qo‘llaganlar. Uningyarmini ($45^0$) transheyaga o‘rnatib, zilzilalar kuchli zonada uning mustahkamligini ta’minladilar. Sekstant (kvadrant)ikkita parallel joylashgan yarim aylanadan iborat bo‘lib, janubdan shimolga to‘g‘irlangan. Sekstant marmar bilan ishlangan bo‘lib, unda graduslar belgilangan. Unda yuqoridagi gradus raqamlaridan $57^0$, pastroqda $80^0$,undan ham pastda $10^0$saqlanib qolgan.

Observatoriyao‘rtaasrlardaasbob-uskunasijihatidanhambeqiyosbo‘lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari-ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik jarayoni doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan.Unda sayyoralar va oy harakati tekshirilgan.

Observatoriyada kichik o‘lchamli asboblar: armilyar sfera, 2,4 va 7 xalqadan iborat o‘lchash asboblari, tropik, quyosh va yulduz soatlari, astrolyabiya va boshqalar bo‘lgan. Jahon astronomiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan «Ziji Ko‘ragoniy» asari shu yerda yaratilgan. Qurilishga zamonasining mashhur olimlari - astronom, matematik, me’morlar (masalan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi va boshqalar) jalb qilingan.

1908-yilda arxeolog V.L.Vyatkin xaroba bo‘lgan observatoriya qoldiqlarini tarixiy hujjatlar asosida topdi. Uzoq va sinchiklab tekshirish natijasida binosilindr

shaklida bo‘lganligi aniqlandi. Uning katta zallari, turli katta-kichik xonalari bo‘lgan.

Mirzo Boburning yozishicha, Mirzo Ulug‘bek observatoriyasi sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Observatoriyaichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlik bilan o‘rganilgan. Observatoriyada kutubxona ham bo‘lgan. Ichki devorda osmon tasviri, yulduzlar xaritasi, tog‘, dengiz, mamlakatlar belgilangan. Yer shari tasviri ishlangan. Hozirda Ulug‘bek observatoriyasidagi katta asbob - sektantning yer ostida saqlangan qismi bilan balandligi 11 metr keladi.

Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng rasadxona bir necha o‘n yillar davomida faoliyat ko‘rsatgan. Ilmiy ishlarga Muhammad Ali Qushchi va Miram Chalabiy rahbarlik qilganlar.

1964-yilda observatoriya poydevori yonida Ulug‘bek muzeyi ochilgan. 1994-yil Ulug‘bekning 600 yilligi munosabati bilan rasadxonada katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi, muzeyning yangi ekspozitsiyalari yaratildi.

**Ulug‘bek observatoriyasi muzeyi .**Ulug‘bek yodgorlik muzeyi 1964 yilda tashkil topgan. Ekspozitsiyani bezashda O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarov ishtirok etgan. Mualliflari A.O. Buryakov F., Upfal E.Ya., Davidyan Yu.S.-muzeyning yetakchi mutaxassislari. Ekspozitsiya Amir Temurning nabirasi, 1409-1449 yillarda Mavoraunnaxrning hukmdori, astronomi va davlat arbobi Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati bilan tanishtiradi. Ekskursantlar muzey eksponatlri bilan tanishib chiqishlari mumkin.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



10.5-rasm.**Ulug‘bek observatoriyasi.**




10.6-rasm.**Ulug'bek observatoriyasini ko'rsatish tartibi.**

## 10.2.Buxoroviloyatiningtarixiy-arxitekturayodgorliklari ekskursiyaob’ektlarisifatida

«Buxoro» so‘zi sanskrit tilida «Ibodatxona», sug‘d tilida «Tangri jamoli» ma’nolarni anglatadi. Buxoro «Buyuk Ipak Yo‘li»ning yirik tijorat markazi bo‘lib hisoblangan. Buxoro O‘rta asrlarga mansub 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklariga ega bo‘lgan «muzey-shahardir». Poyi Kalon, Qo‘shmadrasa, Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi kabi ko‘plab yodgorliklar bundan ming yillar oldin qurilgan bo‘lib, hozirgi kunda ham mehmonlarni o‘ziga jalb etmoqda. Buxoroning mashhurligini al-Buxoriy, Narshaxiy, Rudakiy, Daqiqiy, Abu Ali ibn Sino va Bahouddin Naqshband kabi siymolar yanada sharaflashgan.

Islom dunyosida Buxoroning ismiga «Sharif», ya’ni «Muqaddas» qo‘shimchasi qo‘shib ishlatilgan.X asrda Buxoro eng yirik ilmiy va madaniy markaz bo‘lgan. Mag‘oqi Attori, Namozgoh masjidi, Chashmai Ayub kabilar ushbu davrdan yodgor bo‘lib qolgan. Buxoro qorako‘li xalqaro bozorda e’tirof etilgan.

Buxoro viloyatiningasosiytarixiy-arxitekturayodgorliklari:

1. Ark (XI asr);
2. Bolo-Hovuz majmuasi (XVIII asr);
3. Ismoil Somoniy maqbarasi (IX asr);
4. Chashmai-Ayub (1380 y.);
5. Abdullaxon madrasasi (1596 y.);
6. Modari-Xon madrasasi (1556 y.);
7. Masjidi Baland (XVI asr);
8. Gavkushon majmuasi (XVI asr);
9. Zayniddin Xoji xonaqosi (1555 y.);
10. PoyiKalon majmuasi (XII asr);
11. Labi Hovuz majmuasi (XVI asr);
12. Ko‘kaldosh madrasasi (1568 y.);
13. NodirDevonbegixonaqosi (1622-1623y.);

14. Ulug‘bek madrasasi (1417 y.);
15. Abdulazizxon madrasasi (1652 y.);
16. Bolohovuz masjidi (1712 y.);
17. Sayfiddin Boharziy maqbarasi  (XIII asr);
18. Bayonqulixon maqbarasi (XIV asr);
19. Namozgoh masjidi (XII asr);
20. Fayzobod xonaqosi (1598 y.);
21. Chorminormadrasasi (1807 y.);
22. Buxoro Amirining Sitorai Mohi Xosa yozgi saroyi (XIX asr);
23. Chor-Bakr majmuasi -Jo‘ybor xo‘jalari qabristoni (1560 y.).

Buxoro viloyati bo’ylab tashkil etish mumkin bo’lgan «Buxoroi sharifga marhamat» nomli ekskursiya xizmatining dasturi namunasini keltiramiz:

## «BUXOROI SHARIFGA MARHAMAT»nomli ekskursiya xizmatining DASTURI

**Davomiyligi:** 2 soat

**Masofasi:**Buxoro shahri bo’ylab 20 km

**Ekskursiya maqsadi:**Buxoroningmashhur tarixiy-arxitektura yodgorliklari bilan tanishtirish

**Ekskursiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan guruh:** xorijdan tashrif buyurgan turistlar

**Ekskursiya mavsumi:**yil davomida

## GIDNING INDIVIDUAL MATNI NAMUNASI

### 1-ob’ekt. ARK

**Arkmaydonimarkazida**. Hurmatli ekskursantlar! Siz bilan hozir turgan maydon ko‘hna Buxoroning Registon maydoni hisoblanadi. Bu maydonda ko‘rib

turganingizdek, koʻhna tepalik Ark qad koʻtarib turibdi. Ark 20 mertgacha qurilgan tepalik ustiga barpo etilgan boʻlib, uning maydoni 4 gektarni tashkil etadi. Tarixan ark shaharning markazi, hokim qal'asi hisoblangan. Shahriston Ark oʻrnida eramizdan avvalgi IV asrlarda ham mavjud boʻlgan. Yillar davomida bu yerda sun'iy tepalik paydo boʻlgan. Toʻrtburchak shaklga ega boʻlgan ark devorlari turli davrlarda tosh, pishiq gʻisht, xom gʻishtva paxsalar bilan mustahkamlangan. Soʻnggi yillarda amir arki qurilishida koʻp miqdorda yogʻoch ishlatilganligi tufayli, 1920-yilda Frunze boshchiligidagi «Qizil armiya» tomonidan shaharga oʻt qoʻyilganda vayron boʻlgan va keyinchalik tarixiy hujjatlar asosida qayta tiklangan. Ark davlat tashkilotlari, saroy bilan birgalikda amir, uning oila a'zolari hamda amaldorlari uylaridan iborat boʻlgan. Arkning ichida salomxona (amirning yashash joyi), koʻrinishxona (taxtxona), mirshabxona, otxona, qurol-yaroq ombori, ustaxona, zarbxona, masjid va boshqa maishiy xonalardan iborat boʻlgan.

**Ark qal'asi ichki kirish yoʻlagi.** Hurmatli ekskursantlar! XVI asrda Arkning gʻarbiy tomonidan koʻtarilib boruvchi yoʻl-dalon boʻylab harakatlanib bormoqdamiz. Bu yerda oʻlkan darvozani koʻrishimiz mumkin. Avvallari uning kirish qismi sharqiy tomonda joylashgan. Darvozaxona peshtoqining ikki qismida «guldasta» (burj) va ular oraligʻidagi 3 qavatli bino yaxshi saqlangan. Dalon yoʻlakning chap devorida 12ta, oʻng devorida 13ta taxmontokchalar qurilgan. Chap tomondagi tokchalarning ba'zilarida omborxonaga kiriladigan eshiklar mavjud. Dalonning oʻng tomonidagi oʻrta tokchasida afsonaviy qahramon Siyovush ruhiga Navroʻz bayramida chiroqlar yoqilgan. Amir otxonasi dalonning yuqori qismida joylashgan boʻlib, unga olib boruvchi yoʻlak ham shu yerda joylashgan.

**Jome' masjidi.** Dalon boʻylab yuqoriga koʻtarilar ekanmiz, bu yerda XVIII asr oxirida gʻarbiy devor burchagida peshayvonli Jome' masjidini koʻrishimiz mumkin. Masjidning darvozalari, panjaralari, devorlarining ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlari bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girixlar bilan bezatilgan. Masjidning sharq tomonida oshxona, orqa tarafida zarbxona joylashgan boʻlib, zarbxonaning shimoliy-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi va amirlik kushbegisiga qarashli binolar joylashgan. Arkdagi

binolarning aksariyati bir-biriga yaqin qilib loyihalashtirilgan. Jome’ masjididan boshlangan tor yo‘lak qushbegi hovlisi orqali Chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovlida ko‘rinishxona o‘rnashgan. Bu yerda amir tashrif buyurgan elchilarni qabul qilgan va amirlarning taxtga o‘tirish marosimlari o‘tkazilgan. 1605-yilda hovliga kirayverishda peshtoq bunyod etilgan. Hovlining uch tomoni ayvon bilan o‘ralib, oldingi peshayvondagi ikki qator naqshli ustunlarning tanasi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan yasalgan taxt shu ayvondagi taxtiravonda turgan. XVIII asrda hovlining janubiy tomonida «Raximxon» mehmonxonasi va qorixona qurilgan. Ularning tagida esa amir xazina xonasi bo‘lgan.

**Arkning Chorsu qismi.** Arkning g‘arb tomonidagi hovlilarda mirzalar va boshqa xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Yo’lakning o’rta qismida salomxona, mehmonxona hamda otxona joylashgan. Janubiy tomonda hammom, hammomning sharq tomonida kichkina masjid joylashgan. Arkning sharqiy devori bo‘ylab soqchilar kazarmasi, janubiy - sharqiy burchagida dorixona joylashgan. Afsuski bizgacha arkning 3/1 qismigina saqlanib qolgan. Ark ichidagi oqova suvlar maxsus katta sopol quvurlar orqali tashqariga chiqarilgan. Arkning g‘arbiy devoridan boshqa hamma devorlari burchaklaridagi minoralar buzilib ketgan.

Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta’mirlanib, asl holatiga keltirildi. Ark devorlari yangilandi va bu jarayon davom etmoqda.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



10.7-rasm.**Arkning old ko'rinishi.**




10.8-rasm.**Arkni ko’rsatish tartibi.**

## 2-ob’ekt. POYIKALONANSAMBLI

**MasjidiKalon.** (forschada «Katta masjid») Hurmatli ekskursantlar! Siz ko’rib turgan bu ob’ekt XIV-XV asrlarga oid inshoot bo‘lib,ushbu masjid XII asrda mavjud bo‘lgan va keyinchalik vayron bo‘lgan qadimgi imorat qoldiqlari ustiga bunyod etilgan.

Masjid 127x78 metr hajmda bo‘lib, keng hovli atrofini gumbazli bostirma ayvon egallagan. Ular 288 ta qubba (gumbazcha) 208 ta ustunga tayangan. Masjidning sharq tomonida tashqi o‘lkan peshtoq mahobati bilan ajralib turadi. Masjidi Kalonning 7 ta tashqi eshiklari bo‘lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan.

Masjidi Kalon hovlisi to’rida xonaqoh - mansura joylashib, u baland moviy gumbazga ega. Ichki gumbaz osti qismigaqolibkori uslubida qator mayda ravoqchalar (16 ta) ishlangan. Mehrob bezaklari nafis koshinkorlik namunasi bo‘lib, unga usta Bayazid Puroniy nomi va 1514-yil sanasi ko‘rsatilgan. Peshtoq oldida kichik ko‘shk XX asrda bunyod etilib, uni bunyod etishda Usta Shirin Murodov ishtirok etgan.

**MirArabmadrasasi.** Shayx Abdulloh yoki Sayyid Abdulloh nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u Masjidi Kalon qarshisida joylashgan. XVI asrda Naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan yirik vakillaridan biri hisoblangan Sayyid Abdulloh 22 yoshida Samarqandga kelgan va Xo‘ja Ahror Valiyga shogird tushgan. U umri davomida Turkistonda, Sayramda ikki koriz (yer osti arig‘i) qazdirgan, suv chiqartirgan va qal’a bunyod ettirgan. Shofirkon, Vobkent va Gijduvonning ko‘p joylarida obodonchilik va xayrli ishlarni amalga oshirgan. Xususan u Buxoro xoni Ubaydulloxon in’om etgan mablag‘ hisobiga 1530-yilda madrasa qurishni boshlab yuboradi. Ammo, shayx qurilish ishlari nihoyasiga yetmasdan 1536-yilning boshida vafot etadi. O‘sha yilning o‘zida Shayx Abdulloh vasiyatiga ko‘ra, uning kuyovi Zakariya masjid qurilishini nihoyasiga yetkazadi.

Madrasa peshtoqiga hattot Mirali Fayzobodiy Buxoriy tomonidan quyidagi forsiy qit’a bitilgan:

*MirArabfaxriajamonkikard,*
*Madrasaioliybasbulajab*
*Bulajabonastkitarixiu:*
*MadrasasioliyMirArab*

Madrasa o‘lkan peshtoq, besh gumbazli miyonsaroy, ikkita darsxona, masjid va go‘rxonadan iborat. Go‘rxonada Ubaydulloxonning yog‘ochdan ishlangan sag‘anasi, shuningdek, Mir Arab va uning qarindoshlari qabrlari bor.

Rivoyatlarga ko‘ra madrasaning asosi chuqur kovlanib, tog‘ toshlari bilan mustahkamlangan. Qor va yomg‘ir suvini qochirish uchun tazaralar ishlangan, ular orqali esa suvlar shahar tashqarisiga chiqarilib tashlangan.

Mir Arab madrasasi hozirda ham o‘zining vazifasini bajarib kelmoqda. Madrasa diniy o‘quv yurti hisoblanib, O‘zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufida. Madrasa faoliyatiga nazar tashlasak, sho‘rolar davrida madrasaning faoliyati to‘xtatiladi. Madrasada ta’lim muddati to‘rt yil bo‘lib, o‘qishga 15 yoshdan 36 yoshgacha bo‘lgan o‘rta va to‘liqsiz ma’lumotli kishilar qabul qilinadi. Bu yerda diniy fanlar bilan bir qatorda, umumta’lim fanlari ham o‘qitilgan. Darslar o‘zbek va arab tillarida olib borilib, ingliz, rus hamda fors tillari ham o‘rgatiladi.

**MinoraiKalon** (forschada «Katta minora»).-Buxorodagi eng mashhur yodgorliklardan biri hisoblanadi. Balandligi 50 metr bo‘lgan bu minora, tarixchi Narshaxiy yozishicha, hijriy 521-yil, (1127-yilda) Qoraxoniy hukmdor Muhammad Arslonxon (1102-1130-y.y) bo‘yrug‘iga binoan, muxandis va me’mor Bako loyihasi asosida bunyod etilgan. Minorai Kalon o‘rnida u qurilgunga qadar ham minora bo‘lgan. Ammo minora qulab tushgach, hozirgisi mustahkam qilib qayta qurilgan.

Minora pishiq g‘ishtdan, (27x27x4x5) changxok (alebastr) loyida terilgan. Minora yuqoriga qarab ingichkalashib borib, muqarnas bilan tugaydi. 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Minora tepasiga eni 1 metr bo‘lgan, 104 pillapoya orqali chiqiladi. Zinalar minoradagi 5 ta tor darchalar orqali yoritiladi.

Darchalar ichkariga qarab keskin kengaygan bo‘lib, bunda ichkariga quyosh nurining ko‘proq kirishiga mo‘ljallangan. Minorani bezash ishlari ham silliqlangan g‘isht yordamida amalga oshirilgan. Bezak g‘ishtning o‘rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Minora 14 ta ustma-ust joylashgan turli xil matematik shaklda bejirim bezakli dandanalar bilan bezatilgan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mavzudagi kufiy uslubidagi yozuvlar uchraydi.

Xususan, imoratning qoq belida minoraning qurilgan vaqti va uni qurdirgan Arslon Muhammadxonning ismi yozilgan. Ammo bu yozuv bo‘lak-bo‘lak holatda saqlangan bo‘lib, qurilgan davridagi yozilgan yozuvdan faqat «besh yuz» so‘zi qolgan. Minoraning yuqori qismida qandaydir yozuv bo‘lgan. Ammo bu yozuv 1920 yilda, sho‘rolar bosqini davrida minoraga qarab otilgan snaryad natijasida vayron etilgan. Minora 1924, 1960 hamda 1997-yillarda ta’mirlangan.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



10.9-rasm.**PoyiKalonansambli.**




10.10-rasm.**PoyiKalonansamblini ko’rsatish tartibi.**

## 10.3.Xorazm viloyatiningtarixiy- arxitekturayodgorliklari ekskursiyaob’ektlarisifatida

Dunyoningqadimiyshaharlaridanbiribo‘lganXivaasrlarmobaynidainsoniyatningma’naviyvamoddiymadaniyatitaraqqiyotigao‘ziningsalmoqlihissasiniqo‘shibkelmoqda. XalqarosayyohlikmarkazlaridanbirisanalganXivabejizbutundunyodaochiqosmonostidagimuzeysifatidae’tirofetilmagan. Bushaharhududidajoylashganyodgorliklarmiloddanavvalgi VI – V asrlardanXXasrboshlarigachabo‘lgandavrlargataalluqlidir. AyniqsaXivashahriningIchanQal’aqismiMarkaziyOsiyodasaqlanibqolganbirdanbirbutunboshlishahar-yodgorlikbo‘lib, uningo‘tmishidagitaqdirime’moriyobidalaridunyoningengqadimgimadaniyvohaXorazmningtarixiymadaniytaraqqiyotibilanchambarchasbog‘liqdir.

XivashahridagiIchanqal’avaDishanqal’adagitarixiyyodgorliklar, muzeylar, Xivaningtarixiymerosivasayyohliksalohiyati, vohaningmehmondo‘stodamlari, urf-odatvaan’analarihaqidagima’lumotlarviloyatgatashrifbuyurayotganbarchaturistlarnilolqoldirmoqda. JumladanXivashahridagiIchanqal’amajmui1990 yil 12 dekabrdaYUNESKOningKanadadabo‘libo‘tgan 14 sessiyasiningmaxsusqaroribilanMarkaziyOsiyodabirinchibo‘lib«Butunjahonmerosi»sifatidaro‘yxatgaolingan. O‘zbekistonFanlarakademiyasitomonidan 1984-1993 yillardaXivashahridao‘tkazilganarxeologikqazishmalarnatijasida«Ichanqal’a»hududieramizdanavvalgi V asrdapaydobo‘lganganliginivashahardevorlariostidantopilganmadaniyqatlam, sopolbuyumlarvakattahajmdagixomg‘ishtlarshaharni 2500 yoshdaekaninitasdiqlaydi. Shundanso‘ng 1997 yildamamlakatimizningikkiazimvabuyukshahriBuxorovaXivaning 2500 yillikyubileyiYUNESKOrahnamoligidadunyomiqiyosidakengnishonlanishibushaharningbutundunyodae’tirofetilganidandalolatberadi.

Hozirgikundaviloyatda 255 tamadaniymerosob’ektlaridavlatro‘yxatigaolinganbo‘lib, shundan 18 tasiarxeologiya, 133 tasiarxitektura, 66 tasihaykaltaroshlikyodgorliklari, 32 tasimuqaddasqadamjolar[5]bo‘lib, Davlatmuhofazasigaolingan.

Xivaning arxitektura yodgorliklari asosan madrasa, masjid va minoralar, Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835 yil), Muhammad Aminxon madrasasi (1850-1855 yillar), Ko‘hna Ark, Tosh Hovli, Olloqulixon karvonsaroyi (1855 yil) kabilardan iborat. Rangli bezaklar berilgan Kalta Minor (1835 yil) va 218 ta naqshli ustunga ega bo‘lgan Juma masjidlarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. 2,5 kilometr uzunlikdagi devorga ega bo‘lgan Ichan-qal’a Otadarvoza, Shimoliy, Sharqiy, Janubiy, Buxoro va Toshdarvozalariga ega. Unda 40 dan ko‘proq quduqlar mavjud. Xorazm viloyatining asosiy tarixiy-arxitektura yodgorliklari:

1. Ichan qal’a, Saidboy masjidi va madrasasi (XVIII asr boshi);
2. Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835 yil);
3. Olloqulixon madrasasi (1834 y.);
4. Qutlug‘murod-inoqmadrasasi (1804 y.);
5. Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi (XIX asr);
6. Abdullaxon madrasasi (1865 y.);
7. Anushaxon masjidi va hammomi (1657 y.);
8. Toshhovli (Olloqulixonning karvonsaroyi) (1855 y.);
9. Oq masjid (1832 y.);
10. Juma masjidi va minorasi (1788 y.);
11. Said Olovuddin maqbarasi (XIV asr);
12. MuhammadAminxonmadrasasi (1850-1855yy.);
13. Kaltaminor (1835 y.);
14. Ko‘hna Ark (1868 y.);
15. To‘ramurod minorasi (1888 y.);
16. Sherniyozxon madrasasi (1718 y.);
17. Borlandi masjidi (XIX asr);

---

[5] www. UzA.uz saytima’lumotlari

18. Arabxona madrasasi (1838 y.).

Xorazmviloyati bo’ylab tashkil etish mumkin bo’lgan «Xorazmiazimningmingyilliktarixi» nomli ekskursiya xizmatining dasturi namunasini keltiramiz:

**«XORAZMI AZIMNING MING YILLIK TARIXI» nomli ekskursiya xizmatining**

**DASTURI**

**Davomiyligi:** 1 soat

**Masofasi:**Ichan qal’ada joylashgan ob’ektlar bo’ylab 500-600 metr

**Ekskursiya maqsadi:**Ichan qal’adagi mashhur tarixiy-arxitektura yodgorliklari bilan tanishtirish

**Ekskursiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan guruh:** xorijdan tashrif buyurgan turistlar

**Ekskursiya mavsumi:**yil davomida

**GIDNING INDIVIDUAL MATNI NAMUNASI**

**1-ob’ekt. KO‘K MINORA**

**Minora qarshisida.** Hurmatli ekskursantlar! Siz bilan Ko‘k minora qarshisida turibmiz. Minora Muhammad Aminxon tomonidan madrasa yonida qurilgan. Uning ko‘rinishi kesik konus shaklida bo‘lib (shuning uchun ham «Kalta minor» nomini olgan), balandligi 28 metr, diametri 14,5 metr. Minora o‘z davrida «Ulli (ulug‘) minor», «Ko‘k minor» nomlari bilan atalgan. O‘z davrining shoirlari uning qurilishi nihoyasiga yetganini she’riy tarixlarida ta’riflashgan.

Minoraning bitmay qolgani to‘g‘risida bir necha afsonalar to‘qilgan. Jumladan, Xiva xoni ustaga dunyodagi eng baland minorani qurasan deb farmon beradi. Usta boshlagan ish 2 yil davom etib, minora bo‘y cho‘za boshlaydi. Bu minoraning ovozasi Buxoro amirining qulog‘iga yetadi. Buxoro amiri usta bilan xufiyona shartnoma qiladi. Unga ko‘ra usta Xivadagi minorani bitkazgach, bundan

ham baland va chiroyli minorani Buxoroda qurib berishi kerak bo‘ladi. Bu shartnoma haqidagi ma’lumotlarni eshitgan Xiva xoni «minora bitgach, ustani o‘ldirishini» aytadi. Xonning niyatidan xabar topgan usta qochib ketishni rejalashtiradi. O‘z navbatida xon ustaga minoradan tushmasdan ishlashni buyuradi.

Endi usta shogirdining xizmatiga muxtoj bo‘lib, unga qanot yasash uchun kerak bo‘lgan buyumlarni buyuradi. Minora tepasida qanotlar yasab, bir kun tong saharda janubga tomon uchib ketadi. Shundan keyin minora bitmay qolgan degan afsonalar xalq orasida tarqalgan. 1873-yilda general gubernator fon Kaufmanning buyrug‘iga asosan podporuchik Grigoriy Krivsov xivalik bir qariyadan so‘rab, yozib olgan afsonada minora bitgan va juda baland bo‘lgan ekan. Shuning uchun xalq uni «Ulli minor» (ulug‘, katta minor) deb atagan. Bunday o‘lkan va chiroyli minorasi bilan xivaliklar hamda xon faxrlanar ekan. Bir kun muazzin erta tongda musulmonlarni bomdod namoziga chaqirib, azon aytayotgan paytda minoraning ustki qismi muazzin bilan birga uning ichki qismiga o‘pirilib tushib ketadi. Bu hol barchani vahimaga solib qo‘yadi. Shundan buyon hech kim minoraning ustiga chiqmas ekan deyiladi.Yana bir afsonada aytilishicha, minora bitgan va juda baland bo‘lgan. Bir xorijlik kelib, unga qaragan va «Nihoyatda baland va chiroyli ekan» deb ko‘z tashlagan. U kishining ko‘zi tegib, minora qulab tushgan deyiladi.

Hozirgi kunda Ko‘k minora Ichan qalaning o‘ziga xos bo‘lgan ob’ektlaridan biri sanaladi.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).

10.11-rasm.**Ko’k Minora(Kalta minor).**



10.11-rasm.**Ko’k Minora(Kalta minor).**

## 2-ob’ekt.JOM’EMASJIDI

**Masjidpeshtoqi.**Hurmatli ekskursantlar! Siz bilan hozir ko‘hna Xivaning Ichan Qal’a qismida joylashgan Jome’ masjidi qarshisida turibmiz. Mingyildanziyodtarixgaegabo‘lganJom’emasjidio‘zigaxosqurilishivahajmibilanajralibturadi. BubinoIchan-qal’aningsharqiyvag‘arbiydarvozalarinibirlashtiruvchiyo‘lo‘rtasidajoylashganbo‘lib, birqavatlitekistomliqilibqurilgan. Masjidgato‘rttomondanhamkirisheshiklario‘rnatilganbo‘lib, uningbosheshigishimolgaqaratilganikkitavaqalidarvozadir. Budarvozatavaqalarigaarabtili, sulsxatidaquyidagihadis yozilgan:

*Amallarning yaxshisinajotberuvchisidir,*
*Mol-mulkningyaxshisikifoyatqiluvchisidir.*

**Masjidichkariqismida.** Masjidning 213 ta (o‘ra) ustunliichkimaydoni 55x45 metrbo‘lganiholda, uningbalandligi 4,5 metr. Beshminggayaqinkishinamozo‘qishimumkinbo‘lganbumasjiddayog‘ocho‘ymakorligi san’atiningqadimgivaengchiroylinamunalarihozirhamo‘zvazifasinibajaribturibdi. Buustunlarningayrimlari XIII-XV asrlardaishlanganbo‘lsa, ko‘pchiligi XIX-XX asrlargataalluqli. Bugungikungachasaqlanganbuustunlarning 12 taengqadimgilari X-XII asrlardaishlangan. Ustunlarningko‘pligi, ularningmingyilichidata’mirlanmaganligixorazmlikyog‘ocho‘ymakorustalariningishlarigabahoberishimkoniniberadi. Agare’tiborqilinsa, ustundaginaqshlarningturli-tumanvabir-biridanchiroyliligikishidiqqatinitortadi. Enge’tiborlitomonishundaki, ustunlarqadimiylashibborganisayinulardagigo‘zallikortibboradi. Bugo‘zallik naqshlarningchuqurligi va mayin-nafisligidadir. X-XI asrdaishlanganustunlargatarixiyma’lumotlar yozilgan bo‘lsa, XV-XVI asrlardaulargahadislaryozilganima’lumbo‘ladi.

XasrdaXorazmgakelganarabsayyohlariAl-IstahriyvaAl-Muqaddasiylarningguvohlikberishlaricha, masjid IX-X asrlardabunyodetilgan. Muqaddasiyning«Ahsanattaqosimfima’rifatal-Aqolim

(mamlakatlarnio‘rganishuchunengyaxshitaqsimot)»asaridaXivahaqidashundayma’lumotlarkeltirilgan: «Xivacho‘lchekkasidajoylashganazimbirshahardirvadaryodanchiqarilgankanalbo‘yidadir. Uningkattajome’ masjidibor». UshbuasardaXivahaqidaberilgantarixiyma’lumothamjudaqimmatlidir, qarangundayananimalargae’tiborqaratilgan: «Uyerdauzum, ko‘plabmayiz, qandolat, kunjut, yo‘l-yo‘lmatodantikilgankiyimlar, gilamlar, nafisparchalar, qulflar, rang-barangkiyimlar, faqatkuchliodamlarfoydalanishimumkinbo‘lgano‘q-yoylar, maxsuspishloq, suzma, baliqyetishtiriladi. Uyerdakemalarquriladi».

Ko‘pdanberiyashabkelayotganxivaliklarningaytishlarigaqaraganda, ko‘hnamasjideskiribqolganvauningo‘rnigaikkiyuzyillaroldinxuddio‘sharejaasosida anchakengaytirilganhozirgimasjidbarpoqilingan. Tarixiyma’lumotlargaqaragandamasjid 1788-yildaAbdurahmonMehtarningkattao‘g‘liAbdurahimboytomonidanqaytaqurilgan. MasjidningkunchiqartomonidagikichkinamaqbaragaAbdurahmonMehtardafnqilingan.

Masjidmehrobiningo‘rtasidaranglibo‘yoqlarbilananordaraxtivauningshoxlaridapishibyetilganmevalaritasvirlangan. Burasmningyasalishigasabab, qadimgixorazmliklarningislomdanoldingie’tiqodicha, ya’nizardo‘shtiylik dinida anorni qo‘liga ushlabturganAnaxitatasvirihosildorlikxudosisanalgan. Islomkeyin, anorguliyokiuningmevasiayrimjoylardayasalaboshlangan. Mehrobningikkiyonidadevorgao‘rnatilganmarmartoshlargao‘ymakorxatlarbitilganbo‘lib, xatlarningbiridamasjidmulkivamablag‘ihaqidagivaqfnoma, ikkinchisidaesamasjidtarixigaoidma’lumotlarkeltirilgan. Ulardaaytilishicha, vazirAbdurahmonamribilan 1203 hijriy (1788) yildaKuyuktom (hozirgiQo‘shko‘pirtumanidagiqishloq) vaBekobodqishloqlaridamasjidgavaqfyerlarajratilganligivadaromadnixayr-ehsongahamdamasjidzaruriyatigasarfqilishhaqidagixabarlarbor.

**Qabroldida.** Masjidichkarisiningg‘arbiytomonidabirmarmarqabrtoshbor. Buoqmarmardanishlanganqabrtoshsandiqshaklidabo‘lib, uzunligixorazmliklarurf-

odatigaxosbo‘lmaganholdashimoldanjanubgaqilingan. BudeganiXorazmdaqabrlarsharqdang‘arbgaqilib, yerustigaquriladivamozorichidajasadningboshig‘arbga, yuzijanubgaqaratibqo‘yiladi. YerostigadafnqilinmasliginingsababivohaTuronpasttekisligidajoylashganiuchunyer ostisuviyaqinligidir. Buyerdaikkimetrqazilsahandak, quduqhosilbo‘libsuvpaydobo‘ladi. Qariyalarfarzandlarinitarbiyalagandaboshini qibla-janub tomonga qo‘yibuxlashnio‘rgatishadi. Chunki, odamshuholatdauxlasa, yaxshidamolarekan. Ya’ni, kishiboshinishimoltomongaqo‘yibuxlasa, yeraylanishita’siriostidauningyuragiyarimquvvatbilanishlab, damolarekan. Agarkishijanubgaboshqo‘ysa, undayermagnitmaydonigamoslashib, tanasivayuragidamolarekan. Qadimgilarbuamalnixalqqajudaoddiyqilib, o‘likboshinig‘arbgaqo‘yishibilanuningkuni (quyoshi) tugaydi, faqato‘likshunday yotadi, debtushuntirishgan.

Jome’ masjidbirnechamartaqaytatiklanganligisababli, masjidtomongakengaytirilganvaqtdaAbbosquliqabrimasjidichkarisidaqolgan. EronlikAbbosquliningbuqabriomonatbo‘lib, vaqtikelgandao‘zyurtigaolibketishuchunmo‘ljallanganedi. Shuninguchunqabrteskariya’ni, shimol-janubyo‘nalishidaqurilgan.

Masjideshigidankirilgach, ikkinchiqatordaturganbirustunningdaraxtito‘g‘risidabahsmavjud. UningnaqshlariHindistonuslubigao‘xshaganligiuchunPahlavonMahmudgahindpodshohidansovg‘aqilinganvag‘o‘zapoyadaraxtidanishlangandebhisoblanadi. Haqiqatanhamundaginaqshlarboshqahechbirustunyokieshiklardauchramaydi. Ayniqsa, naqshlarichigayashirilgano‘tirganholatdagiBuddavatikkaturganBraxmaningtasviribufarazlarnigo‘yoisbotlaydi.

